

جدید

2025-yil 14-noyabr
№ 46 (98)

www.jadid.uz



Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz



@Jadidrasmiy



@Jadid_uz

MARKAZIY OSIYO YANGI DAVR OSTONASIDA



Markaziy Osiyo o'z taraqqiyotining yangi, tarixiy ahamiyatga molik bosqichiga qadam qo'ymoqda. Bugun biz chinakam birdamlik bosqichiga o'tyapmiz. Bizning mintaqamizda uzoq yillar davomida ilk bor birgalikda oldinga qarab borishimiz uchun poydevor bo'lib xizmat qilayotgan o'zaro ishonch, yaxshi qo'shnichilik va hurmat muhiti shakllanmoqda...

Bu – o'z-o'zidan paydo bo'lib qolgan jarayon emas, balki umumiy taqdiri va birgalikda taraqqiy etish salohiyatini anglab yetgan mamlakatlarimiz yetakchilarining aniq maqsadga qaratilgan sa'y-harakatlari va siyosiy irodasi natijasidir. Ayni paytda bu jarayon o'zaro ishonch muhitida tobora qizg'in tus olayotgani Markaziy Osiyo mamlakatlari xalqlari tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan mintaqaviy hamkorlik keng ko'lamdagi zaruratga aylanganidan dalolatdir.

Hamkorligimizni mintaqaviy yaqinlashuvning yangi bosqichiga olib chiqish uchun davlatlarimiz darajasida sharoit yaratilganini ko'rib turibmiz. Oldimizda erishilgan kelishuvlarni fuqarolar va biznes uchun aniq natija va qulayliklarga aylantirishdek strategik vazifa turibdi. Markaziy Osiyo qarorlar shunchaki hujjat sifatida emas, balki mintaq mamlakatlarida barqaror rivojlanishni ta'minlash va odamlarning kundalik hayotini yaxshilash uchun qabul qilinadigan, imkoniyatlardan birgalikda foydalaniladigan umumiy makonga aylanishi kerak.

Nisbatan qisqa muddatda mintaqaviy hamkorlik va ishonchli muloqotning samarali mexanizmiga aylangan **Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari mintaqamizda** bo'layotgan o'zgarishlarning yorqin timsolidir. Ushbu uchrashuvlar Markaziy Osiyoning bugungi taraqqiyoti va kelajagiga daxldor strategik masalalar bo'yicha umumiy yondashuvlarni ishlab chiqish uchun asosiy muloqot maydoni sifatida shakllandi.

Bo'lajak **Toshkent sammiti** barqaror, o'zaro bog'liq va farovon Markaziy Osiyoni birgalikda barpo etishda yangi muhim bosqichni boshlab beradi.

(Davomi 2-sahifada).

VATAN MANZUMASI

Yurak

Yurak, sensan mening sozim,
Tilimni nayga jo'r etding.
Ko'zinga oyni berkitding,
Yurak, sensan ishqibozim.

Senga tor keldi bu ko'krak;
Sevinching toshdi qirg'oqdan,
Tilim charchar, ajab, gohi
Seni tarjima qilmoqdan.

Sen ey, sen – o'ynoqi dilbar,
Zafardan izla yoringni.
To'lib qayna, toshib o'yna,
Tirikman, kuyla boringni!

Itoat et!
Agar sendan
Vatan rozi emas bo'lsa,
Yoril, chagmoqqa aylan sen,
Yoril! Mayli, tamom o'lsam!.

Ushmon NOSIR

(4-sahifada o'qing).

FAKT

✓ O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Qozoqiston Prezidenti Qosim-Jo'mart To'qayev 14-16-noyabr kunlari mamlakatga davlat tashrifi bilan keladi.

✓ O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev AQSH Yuta shtati biznes delegatsiyasini qabul qildi.

✓ Markaziy Osiyo yetakchi ayollari muloqoti majlisida Toshkent deklaratsiyasi qabul qilindi.

U Markaziy Osiyo mamlakatlarida xotin-qizlar huquqlari, gender tenglik va barqaror rivojlanish masalalarini ilgari surishga bag'ishlangan mintaqaviy sa'y-harakatlarni e'tirof etadi.

✓ Saudiya Arabistonining Ar-Riyod shahrida o'tkazilayotgan VI Islom birdamlik o'yinlarida O'zbekiston delegatsiyasi 15 ta oltin, 17 ta kumush va 14 ta bronza (jami 46 ta) medal bilan ikkinchi o'rinda bormoqda.

ISLOHOT



TIBBIY TARAQQIYOT

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev kuni kecha Toshkent davlat tibbiyot universitetiga tashrif buyurib, soha xodimlari bilan uchrashdi. Tibbiyot xodimlari kuni munosabati bilan bo'lib o'tgan tadbirda tizim rivoji va xalqimiz salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladigan yangi tashabbuslar ilgari surildi. Xususan, bundan buyon bayramni "Tibbiyot va farmatsevtika xodimlari kuni" deb nishonlash taklifi bildirildi. Bu taklif ikki yo'nalishni birlashtirib, ularning ahamiyatini oshirish, ilmiy hamkorlikni rag'batlantirish va jamiyatda ijobiy muhitni yaratishga xizmat qiladigan muhim qadamdir.

So'nggi yillarda mamlakatimizda tibbiyot sohasiga 230 trillion so'mdan ortiq mablag' yo'naltirilgan bo'lsa, joriy yilning o'zida 45 trillion so'm ajratildi. Bunday katta hajmdagi investitsiyalar natijasida joylarda yangi tibbiyot muassasalari barpo etilmoqda, mavjudlari rekonstruksiya qilinib, zamonaviy uskunar bilan jihozlanmoqda.

Xususan, 187 ta yangi poliklinika va shifoxona ishga tushirilgan bo'lsa, 1244 tasi rekonstruksiya qilindi. Bu o'zgarishlar natijasida birlamchi tibbiyot muassasalarining quvvati 60 foizga oshdi.

(Davomi 3-sahifada).

MUTOLAADAN SO'NG

XUSHXABAR BERGUVCHI VA OGOHLANTIRUVCHI

Qur'oni Karim ma'nolarining
yangi izohli tarjiması –
"Anvorul-Qur'on: Fayzul-Furqon" haqida

Mo'tabar kitob – "Anvorul-Qur'on: Fayzul-Furqon" (Qur'oni Karim ma'nolarining izohli tarjiması) mutolaasi har bir o'quvchiga Yaratganning cheksiz qudratini anglatadi, insonning ojiz banda ekanini yana bir bor eslatadi. Zero, "ham xushxabar berguvchi, ham (oqibat haqida) ogohlantiruvchi (holida tushirilgan)" Qur'oni Karimda aytiladi (oyat ma'nosi): "Alloh so'zning eng go'zalini (ravonlik va ohangda, fashat va balog'atda) bir xil o'xshashlikda bo'lgan hamda (hukmlari) takrorli (xushxabar va tahdid – va'da va va'id, rahmat va azob, jannat va do'zax kabi muqobil qiyosiy bayonli) bir Kitob holida nozil qildi. Undan (Qur'ondan) Rabbisidan qo'rqadiganlarning (oyatlarni tinglab) badanlari titrar, keyin esa tanlari va qalblari Allohning zikri uchun yumshar. Ana shu (Kitob) Allohning (so'nggi yuborgan) hidoyatidir..." ("Zumar" surasi, 23-oyat).

Islom dinining dunyoga kelishiga oid eng haqqoniy tarix ham ushbu Kitobdadir. Bayon etiladiki, islomdan oldin Ka'bada mushriklardan har bir qabilaning bittadan buti, chunonchi, Vadd, Suvo', Yag'us, Ya'uq, Nasr singari eng ulug' butlari bo'lardi. Aslida, ular hazrati Odam alayhissallom o'g'illarining ismi bo'lib, xalq bu qahramon zotlarni sevgani sababli vafotlaridan keyin ularni unutmastlik va termilib turish uchun rasmlarini chizib, uylariga osadi. Ishning mohiyati unutilgach esa keyingi nasllar ularni haykal sifatida butlashtirib, maydonlarda ularga sig'ina boshlaydi.

(Davomi 4-sahifada).

ILM YO'LI

QILNI QIRQ YORIB...

O'zFA U.A.Arifov nomidagi Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti
direktori Hotam ASHUROV bilan suhbat



– Domla, tezkor zamonga xos shoshqaloqlik yo e'tiborsizlikmi, ilmiy muassasalarga nomi berilgan shaxslar ismini nutqimizda tashlab ketishga odatlandik. Aksar hollarda, ularning kimligiga ham qiziqmaymiz. Keling, suhbatimiz avvalida bu "an'ana"ga zid ravishda Ubay Arifov faoliyatiga nazar tashlasak.

– To'g'ri aytdingiz. O'zbekiston Fanlar akademiyasi qoshida 31 ta ilmiy-tadqiqot muassasasi bo'lsa, ulardan 10 tasiga fidoyi allomalarimiz nomi berilgan.

(Davomi 3-sahifada).

NUQTAYI NAZAR

ONG VA RAQAMLI G'OYA

XXI asr kishilari axborot sivilizatsiyasi bosqichiga kirdi. Endilikda jamiyat taraqqiyoti va osoyishtaligini faqat iqtisodiy yoki siyosiy omillar emas, axborotni qabul qilish va qayta ishlash qobiliyati, ya'ni raqamli ong darajasi ham belgilamoqda. Bunday sharoitda har bir millatning kelajagi uning axborotga bo'lgan munosabati, sun'iy intellektni qanday talqin qilishi va raqamli muhitda milliy o'zligini saqlab qolish qobiliyati bilan chambarchas bog'liq.

(Davomi 5-sahifada).





MARKAZIY OSIYO YANGI DAVR OSTONASIDA

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Davlat rahbarlarining Toshkentdagi uchrashuvi biz boshlagan yo'lining davomi sifatida mamlakatlarimizning o'zaro anglashuv va sheriklik ruhiga sodiqligini tasdiqlashi, mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirishda tub burilish yasashi kerak.

Jahon tartibotining keng ko'lamda transformatsiyaga uchrashi, global iqtisodiyotni parchalashga qaratilgan xatarlar, iqlim o'zgarishi, oziq-ovqat va energetika xavfsizligi bilan bog'liq muammolarning keskinlashib borayotgani sa'y-harakatlarimizni birlashtirish yo'lidagi intilishimizni kuchaytirdi.

Bularning barchasi Markaziy Osiyo davlatlaridan yanada jips va hamjihat bo'lib harakat qilishni taqozo etadi.

Aynan shuning uchun ham bugungi kunda hamkorligimizni mustahkamlash shunchaki siyosiy maqsad emas, balki strategik zaruratdir. Markaziy Osiyo barqarorlik va bunyodkorlik hududiga, mintaqaviy o'zaro bog'liqlik barqaror rivojlanish va xavfsizlik uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilayotganining namunasiga aylandi.

Maslahat uchrashuvlari formati yo'lga qo'yilgan 2017-yil mintaqaviy hamkorlik tarixida tub burilish yasadi. Mintaqa yetakchilari ko'p yillar mobaynida birinchi marta tashqi vositachilarsiz tizimli va muntazam muloqotni boshladilar. Bu ishonchga, ochiqlik va umumiy manfaatlarni anglashga asoslangan **yangicha siyosiy tafakkur** ramziga aylandi. Aynan Maslahat uchrashuvlari doirasidagi muloqot tufayli eski davrdan qolgan bir qator kelishmovchiliklarni bartaraf etish va ishonchsizlikdan haqiqiy hamkorlikka o'tishga erishildi.

Mintaqaviy hamkorlik borasida boshlangan yangi bosqichning eng muhim yutuqlaridan biri — **chegara masalalari uzil-kesil hal etilganidir**. Yaqin-yaqingacha imkonsiz tuyulgan bu muammoning yechimi bugun real holatga, bir paytlar bizni ajratib turgan chegaralar esa do'stlik va hamkorlik ko'prigiga aylandi. 2025-yil mart oyida O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasida **uch davlatning chegaralari tutashgan nuqta to'g'risidagi Shartnoma** va **Xo'jand deklaratsiyasining** imzolangani tarixiy ahamiyatga molik hodisadir. Buni haqli ravishda olamshumul voqea deb atash mumkin.

Mintaqa mamlakatlarining mustaqil rivojlanish tarixida ilk bor o'zaro chegaralarning barchasi huquqiy jihatdan rasmiylashtirildi, o'nlab yillar davomida keskinlik manbayi bo'lib kelgan masalaga nuqta qo'yildi.

Shu yil oktyabr oyida bo'lib o'tgan Farg'ona tinchlik forumi mamlakatlarimizning Farg'ona vodiysida tinchlik va totuvlikni mustahkamlashga bo'lgan o'zaro intilishining yaqqol amaliy tasdiqi, Markaziy Osiyoda kechayotgan bunyodkorlik jarayonlarining ifodasi bo'ldi.

Ilgari keskin kelishmovchilik va ziddiyatlarga sabab bo'lib kelgan **suv-energetika sohasida** ham prinsipial ijobiy o'zgarishlar ro'y bermog'chi. O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston o'rtasida **Qambarota GES-1** loyihasini birgalikda amalga oshirish to'g'risidagi bitim mintaqaning suv-energetika resurslaridan birgalikda foydalanish amaliyotida yangi sahifa ochgani qardoshlaricha hamkorlikning yorqin dalilidir.

Toshkent va Bishkek o'rtasida **Chashma bulog'idan** birgalikda foydalanish to'g'risidagi kelishuv oqilona murosaga misol bo'la oladi.

O'zbekiston va Tojikiston ishtirokida Zarafshan daryosida **Yovon** va **Fondaryo GESlarini** qurish bo'yicha hamkorlik oldinga siljimoqda, O'zbekiston, Tojikiston va Qozog'iston o'rtasida **Bahri Tojik suv omborini** vegetatsiya davrida kelishilgan tartibda ishlatish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Turkmaniston bilan hukumatlararo bitim doirasida **Amudaryo suv resurslaridan** oqilona foydalanish bo'yicha kelishuvga erishildi. Bu suv resurslarini birgalikda boshqarishni yaxshilaydi hamda ekologik muammolar xavfini kamaytiradi.

Bularning barchasi ishonch, o'zaro manfaatdorlik va umumiy resurslarga adolati yondashuvga asoslangan yangi hamkorlik ruhini shakllantirmoqda. Bunday loyihalar aholining iqtisodiy faolligini qo'llab-quvvatlash va mintaqaning energetik xavfsizligini mustahkamlash uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda.

Shu bilan birga, chegara tartib-taomillari va gumanitar aloqalar sohasida jiddiy o'zgarishlar ro'y bermog'chi. 2023-yil sentyabr oyidan boshlab O'zbekiston va Qirg'iziston fuqarolari **ID-kartalar** asosida chegaradan o'tayotgani odamlarning erkin harakatlanish hududini shakllantirish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. Qozog'iston va Tojikiston bilan ham shunday kelishuvlar ishlab chiqilmoqda. Hududlar o'rtasidagi aloqalar kengaymoqda,

chegaraoldi savdo hajmi oshmoqda, gumanitar va madaniy aloqalar mustahkamlanmoqda.

Hamkorlikni institutsional jihatdan rasmiylashtirish bo'yicha qadamlar ham muhim ahamiyatga ega. Bu borada 2023-yilda Dushanbe shahrida o'tkazilgan beshinchi Maslahat uchrashuvini qayd etish lozim.

Mazkur uchrashuvda davlat rahbarlarining kelishuvlarini tayyorlash va amalga oshirishning doimiy mexanizmi sifatida **Milliy muvofiqlashtiruvchilar kengashini** ta'sis etish to'g'risida qaror qabul qilindi. Ushbu mexanizmning ishga tushirilishi Maslahat uchrashuvlari formatiga tizimli tus berish va birgalikda ilgari surilgan tashabbuslarni amalga oshirishda izchillikni ta'minlash imkonini berdi. Shuningdek, **parlamentlararo muloqot** va **Xavfsizlik kengashlari kotiblari darajasida muntazam uchrashuvlar** yo'lga qo'yilgan.

2022-yilda bo'lib o'tgan Cho'lponota uchrashuvi yakunlari bo'yicha suveren tenglik, o'zaro qo'llab-quvvatlash va mintaqa kelajagi uchun birgalikdagi mas'uliyat tamoyillarini mustahkamlash **XXI asrda Markaziy Osiyoni rivojlantirish maqsadlarida do'stlik, yaxshi qo'shnihilik va hamkorlik to'g'risidagi shartnomaning** imzolaniishi **shartnomaviy-huquqiy bazani** yanada mustahkamlashga xizmat qildi. 2025-yilda Tojikistonning bu hujjatga qo'shilgani mintaqaviy birdamlikni mustahkamlash yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. Biz ushbu qarorni olqishlaymiz hamda yaqin istiqbolda Markaziy Osiyoda o'zaro ishonch, yaxshi qo'shnihilik va strategik sheriklik ruhini uzil-kesil mustahkamlashga xizmat qiladigan mazkur shartnoma mintaqaning barcha davlatlari tomonidan imzolaniшинi kutib qolamiz.

2022-yilda davlat rahbarlari tomonidan **Markaziy Osiyo davlatlarining ko'p tomonlama formatlar doirasidagi hamkorligi konsepsiyasi** ham tasdiqlandi. Unda mintaqada mamlakatlari xalqaro platformalarda, jumladan, "Markaziy Osiyo plyus" formatlarida o'zaro muvofiq holda harakat qilishining yo'nalishlari belgilab olindi.

2024-yilda Ostona sammitida qabul qilingan **"Markaziy Osiyo – 2040" mintaqaviy kooperatsiyani rivojlantirish konsepsiyasi** muhim dasturiy hujjat bo'ldi. Unda mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash va mamlakatlarimiz taraqqiyotiga qaratilgan hamkorlikning uzoq muddatli ustuvor yo'nalishlari mustahkamlab qo'yildi.

Shu tariqa ko'p qirrali o'zaro hamkorlik arxitekturasini barpo etar ekanmiz, rivojlanish uchun ulkan manbalarni kashf etdik.

Davlatlarning sa'y-harakatlari bilan mintaqada **yangi iqtisodiy voqelik** shakllanmoqda. So'nggi sakkiz yil davomida Markaziy Osiyo mamlakatlarining yalpi ichki mahsuloti qariyb ikki yarim barobar o'sib, 520 milliard dollarga, tashqi savdo hajmi esa ikki karradan ziyod ko'payib, 253 milliard dollarga yetdi. Shu bilan birga, mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro savdo hajmi 2 marta oshib, qariyb 11 milliard dollarga, o'zaro investitsiyalar esa 5,6 barobarga yetdi. Birgina mamlakatimizni oladigan bo'lsak, O'zbekistonning mintaqa davlatlari bilan tovar ayirboshlash hajmi 2016-yildagi 2,4 milliard dollardan 2024-yilda 7,2 milliard dollarga yetdi, qo'shma korxonalar soni esa 1800 dan oshdi.

Sanoatda Markaziy Osiyo barqaror ravishda yiliga 6 foiz atrofidagi o'sishni namoyish etmoqda, bu jahondagi o'rtacha o'sish sur'atidan ikki karra yuqori. Bunday muvaffaqiyat ishlab chiqarish kooperatsiyasining yangi shakllarini yo'lga qo'yish — qo'shma investitsiya fondlarini (jumladan, O'zbekiston — Qirg'iziston, O'zbekiston — Tojikiston va Qozog'iston — Qirg'iziston) tashkil etish, avtomobilsozlik, elektrotexnika, to'qimachilik sanoati, qishloq xo'jaligi sohasidagi loyihalarni amalga oshirish bilan bog'liq. Mintaqa mamlakatlari tomonidan tasdiqlangan **2025-2027-yillarda sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar rejas**i hamkorlikning muhim vositasiga aylanmoqda. Kichik va o'rta biznesning o'sishiga ko'maklashadigan chegaraoldi savdo zonalar va xalqaro sanoat kooperatsiyasi markazlari faol rivojlanmoqda.

Gumanitar sohada ham keyingi yillarda aloqalar mustahkamlanmoqda. Markaziy Osiyo yetakchi ayollari muloqoti va Yoshlar platformasi ta'sis etildi, 2022-yildan boshlab rektorlar va olimlar forumlari o'tkazilmoqda, o'zaro madaniyat yillari, ko'rgazmalar, konsertlar va sport tadbirlari muntazam o'tkazilmoqda.

Eng muhimi, **qardosh xalqlarimiz bo'layotgan barcha ijobiy o'zgarishlarni o'z kundalik hayotida his etmoqda**. Yangi o'tkazish punktlari ochilgani, aviaqatnovlar, temir yo'l va avtobuslar yo'nalishlari yo'lga qo'yilgani o'zaro bordi-keldilarni bir necha

bor oshirish, madaniy-gumanitar aloqalarni kengaytirish imkonini berdi. Mintaqa mamlakatlarining umumiy sayyohlik oqimida ichki mintaqaviy turizmning ulushi 80 foizdan oshdi.

Yaqin-yaqingacha orzu bo'lib tuyulgan erkin harakatlanish, o'zaro hurmat, yaqinlik va ishonch tuyg'usi bugun amaldagi haqiqatga aylanmoqda.

Asta-sekin Markaziy Osiyoning yangi **mintaqaviy o'ziga xosligi** vujudga kelmoqda. Bu farqli jihatlarimizni e'tirof etish va ayni paytda xalqlarimizning umumiy tarixi, mushtarak madaniyatini, taqdirlarimiz o'zaro bog'liq ekanini chuqur anglashga asoslanadi. Qo'shnihilik — xavf emas, imkoniyat, bir tarafning muvaffaqiyati — barchaning yutug'i degan yagona mintaqaviy makonga mansublik hissi shakllanmoqda.

Mana shunday ishonch, o'zaro anglashuv va umumiy kelajak ruhi bugungi kunda mintaqaviy jipslashuvni yanada mustahkamlash, ya'ni barqaror va o'zaro bog'liq, farovon Markaziy Osiyoni birgalikda barpo etish bo'yicha **Markaziy Osiyo jarayonini** boshlash uchun eng muhim tayanch asosdir.

Ta'kidlash joizki, Markaziy Osiyoning har bir davlati o'z sa'y-harakatlarini iqtisodiyotni rivojlantirish, ishonchni mustahkamlash va mintaqaviy hamkorlikni kengaytirishga yo'naltirish orqali mintaqamiz barqarorligi va farovonligini ta'minlashga sezilarli hissa qo'shmoqda.

Qozog'iston transport yo'laklarini faol rivojlantirmoqda, chegara punktlarini modernizatsiya qilmoqda, savdo to'siqlarini bartaraf etmoqda va madaniy-gumanitar almashinuv bo'yicha loyihalarni amalga oshirmoqda. Qirg'iziston va Tojikiston muzliklarning erishi bilan bog'liq masalalarda izchil hamkorlik qilmoqda, energetika tizimlarini modernizatsiya qilish va transport jihatidan o'zaro bog'liqlikni rivojlantirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirmoqda. Turkmaniston tinchlik va ishonchni mustahkamlash, mintaqaning transport-tranzit salohiyatini oshirish, BMTning Orol havzasi va iqlim texnologiyalari bo'yicha dasturini qabul qilishga doir muhim tashabbuslarni ilgari surmoqda.

Amaliy harakatlarimiz, kelajak uchun mas'uliyatimiz, yaxshi qo'shnihilik, do'stlik va o'zaro manfaat tamoyillariga sodiqligimiz shuni isbotladi: **Yangi Markaziy Osiyo** tinchlik, barqaror taraqqiyot va yaratuvchan sheriklik yo'lini tanlamog'chi. Ramziy ma'noda aytganda, biz devor emas, ko'prik barpo etmoqdamiz.

Mintaqaviy jipslashuv borasidagi yutuqlar tufayli bugungi kunda Markaziy Osiyo xalqaro munosabatlarning o'z manfaatlari va taraqqiyot yo'llarini aniq tasavvur etadigan mustaqil va mas'uliyatli ishtirokchisi sifatida qaror topdi.

"Markaziy Osiyo plyus" hamkorlik formatlari **mintaqaning xalqaro huquqiy subyekti sifatidagi mavqeiy** kuchayib borayotganining ifodasi hamda barqarorlik va taraqqiyotning muhim markazi sifatidagi rolining e'tirofi bo'ldi.

Ilgari tashqi hamkorlar aloqalarni asosan ikki tomonlama asosda qurgan bo'lsa, bugungi kunda dunyoning yetakchi davlat va birlashmalari Markaziy Osiyo bilan munosabatlarni yaxlit mintaqaviy sherik sifatida rivojlantirmoqda.

Bu mintaqaning boshqa hamkorlar bilan munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqadi: Markaziy Osiyo tashqi hamkorlar bilan xalqaro munosabatlarning yagona subyekti sifatida muloqot qilsa, uning ovozi balandroq va ishonchliroq yangraydi, pozitsiyamiz kuchliroq bo'ladi, investitsiyalarni jalb etish, boshqa mamlakatlar bilan barcha yo'nalishlarda hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha vazifalarni yanada samarali hal qila olamiz.

Dunyoga ochiqligimiz, niyatlarimizning shaffoligi va muloqotga moyilligimiz xalqaro maydonda Markaziy Osiyoni yangicha qabul qilish uchun asos bo'ldi.

Ayni paytda Markaziy Osiyoni dunyoning yetakchi davlatlari va birlashmalari bilan bog'laydigan o'ndan ortiq "Markaziy Osiyo plyus" formatlari faoliyat ko'rsatmoqda. Joriy yilning o'zida "Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi", "Markaziy Osiyo — Xitoy", "Markaziy Osiyo — Rossiya" va "Markaziy Osiyo — AQSH" sammitlari bo'lib o'tgani mintaqaning global siyosatdagi shiddati va strategik ahamiyati ortib borayotganini tasdiqlaydi.

Yangidan yangi "Markaziy Osiyo plyus" muloqotlari davlat rahbarlari darajasiga ko'tarilayotgani ularning amaliy ahamiyati va siyosiy qimmatli ortib borayotganidan dalolat beradi. Bir qator formatlarda esa energetika, transport, "yashil iqtisodiyot" va raqamlashtirish sohaslarida aniq loyihalarni ishlab chiqish uchun ishchi guruh va kotibiyatlar tashkil etilmoqda.

Afg'oniston bilan bog'liq masalalarni hal etmasdan turib, mintaqaviy barqarorlikni

mustahkamlab bo'lmaydi. Bu mamlakat umumiy mintaqamizning bir chekkasida emas, balki uning tabiiy bir qismidir. Butun Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikning mustahkam bo'lishi ko'p jihatdan Afg'onistonning tiklanishi va rivojlanishiga bog'liq.

Afg'onistonning jafokash xalqi **chuqur gumanitar inqiroz** sharoitida yashashda davom etmoqda. Shu munosabat bilan mintaqa mamlakatlari Afg'onistonni mintaqaviy va xalqaro jarayonlarga izchil jalb etish zarurligidan kelib chiqmoqda. Bu esa ushbu mamlakat taraqqiyoti va keng mintaqamizda barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Markaziy va Janubiy Osiyoni bog'laydigan **Transafg'on temir yo'lini** barpo etish muhim ahamiyatga ega. Mazkur loyihaning amalga oshirilishi savdo, investitsiyalar va transport jihatidan o'zaro bog'liqlik uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, shuningdek, Afg'onistonning iqtisodiy tiklanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, afg'on xalqiga gumanitar va ta'lim borasida yordam ko'rsatish, energetika sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish, iqtisodiyotning muhim tarmoqlari uchun mutaxassislar tayyorlash ishlari davom etmoqda.

Afg'oniston umumiy tinchlik va xavfsizlik, hamkorlik va taraqqiyot makonining bir qismiga aylanishi lozim. Bu mintaqaning barcha mamlakatlari manfaatlariga javob beradi hamda Markaziy Osiyoning janubiy sarhadlarida barqarorlik belbog'ini shakllantirishga xizmat qiladi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, bugungi kunda Markaziy Osiyo o'z jadal taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'ymoqda. Biz ikki tomonlama masalalarni hal etishdan iqlim o'zgarishi, energetika sohasidagi o'tish, suv va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish kabi asosiy mintaqaviy tahdidlarga birgalikda yechim topish sari bormoqdamiz. Mamlakatlarimiz oldida umumiy mas'uliyat, o'zaro ishonch va kelajagimiz haqidagi yakdil tasavvurga asoslangan hamkorlikning yangi uflari ochilmoqda.

Shu munosabat bilan Markaziy Osiyo yaqin o'n yilliklarda qanday rivojlanadi degan prinsipial savolga birgalikda javob berishimiz zarur.

Markaziy Osiyo aholisi 80 millionlik marradan o'tib bo'ldi, BMT prognozlariga ko'ra, 2050-yilga borib, bu ko'rsatkich 100 milliiondan oshadi. Shuningdek, Markaziy Osiyo dunyoning eng yosh mintaqalaridan biri bo'lib, aholisining o'rtacha yoshi atigi 29 yoshni tashkil etmoqda.

Oldimzda ushbu demografik resursni taraqqiyot va innovatsiyaning qudratli omiliga aylantirish, yoshlarimizning iste'dodi va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratish vazifasi turibdi.

Ayni paytda mamlakatlarimizning o'zaro hamkorlikni rivojlantirish suverenitet, teng huquqlilik va ichki ishlarga aralashmaslik borasidagi mustahkam poydevor asosida amalga oshirilishi lozim degan vazmin yondashuvini qayd etish muhimdir. Hech kim mintaqa mamlakatlariga begona modellarni tiqishtirmasligi yoki milliy tuzilmalardan ustun turadigan tuzilmalarni yaratmasligi lozim.

Markaziy Osiyodagi hamkorlik ixtiyoriy, pragmatik va mamlakatlarimiz xalqlariga foyda keltiradigan real natijalarga yo'naltirilgan bo'lib qolishi kerak.

Hozirgi bosqichda oldimzda o'ta muhim masalalar turibdi, mintaqamizning barqarorligi va rivojlanish sur'atlari ularning hal etilishiga bog'liq.

Birinchidan, mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirishni davom ettirish — mavjud mexanizmlarni mustahkamlab, ularga barqaror tus va amaliy ma'no-mazmun bag'ishlash zarur. Oxir-oqibatda sizimli mintaqaviy institutlarsiz hamkorlikni tamizli rivojlantirish va qabul qilinayotgan qo'shma qarorlarni sifatli amalga oshirishni ta'minlab bo'lmaydi.

Ikkinchidan, xavfsizlik sohasidagi maqsadimiz — tahdid va xatarlarga qarshi kurashish bo'yicha umumiy salohiyatni shakllantirishdan iborat. Xavfsizlik kengashlari kotiblari, maxsus xizmatlar, mudofaa va huquqni muhofaza qilish idoralari rahbarlarining muntazam uchrashuvlarini davom ettirish lozim. "Xavfsizlikning bo'linmasligi" prinsipi asos bo'lib qolishi kerak. Ayni paytda mintaqaviy hamkorlik amaldagi xalqaro mexanizmlar bilan uzviy bog'liq bo'lishi, barqarorlikni mustahkamlash hamda mamlakatlar va umuman, mintaqa xavfsizligiga nisbatan tahdidlarning keng doirasiga qarshi turish bo'yicha o'z salohiyatini shakllantirish lozim.

Uchinchidan, iqtisodiy sohada ichki mintaqaviy savdoni rivojlantirish, chegaralardan o'tish tartib-taomillarini soddalashtirish va o'zaro investitsiyalar uchun qulay sharoitlar

yaratish muhimdir. Sanoat kooperatsiyasini faollashtirish, mintaqaviy va hududlararo yetkazib berish zanjirlarini shakllantirish, chegaraoldi savdo zonalarini rivojlantirish, transport va iqtisodiy yo'laklar tarmog'ini kengaytirish, transport, energetika, qishloq xo'jaligi va raqamli iqtisodiyot sohaslarida qo'shma loyihalarni ilgari surish zarur.

Hamkorlikning ekologik jihatiga — iqlim o'zgarishlariga moslashish, transchegaraviy suv resurslari va biologik xilma-xillikni asrash, "yashil" energetika va kam uglerodli texnologiyalarga o'tish bo'yicha birgalikdagi sa'y-harakatlarga alohida e'tibor qaratishimiz lozim.

Markaziy Osiyo barqaror ekologik rivojlanish mintaqasi va atrof-muhitga mas'uliyatli munosabating namunasi bo'lishga qodir va shunday bo'lishi kerak.

To'rtinchidan, gumanitar hamkorlik ustuvor yo'nalish bo'lib qolmoqda. Inson kapitalini rivojlantirish, ta'lim, ilm-fan va madaniy aloqalarni mustahkamlash markaziy vazifadir. Umumiy axborot makonini yaratish, ta'lim, sog'liqni saqlash sifatini oshirish, umuman, ijtimoiy sohani, jumladan, turizmni va yoshlarga oid qo'shma dasturlarni rivojlantirish — bularning barchasi xalqlar o'rtasidagi o'zaro anglashuvni mustahkamlashga bevosita xizmat qiladi. Umumiy qadriyatlar, madaniy yaqinlik va farovonlikka birgalikda intilishga asoslangan mintaqaviy o'ziga xoslikni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Beshinchidan, Markaziy Osiyo mamlakatlarining tashqi siyosatda kelishilgan yondashuvlarini ishlab chiqish muhim yo'nalish hisoblanadi.

Geosiyosiy beqarorlik tobora ortib borayotgan va jahon kuch markazlari o'rtasida raqobat kuchaygan sharoitda mintaqa davlatlarining xalqaro maydondagi pozitsiyalarini muvofiqlashtirish barqarorlik va umumiy manfaatlarni himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan asosiy hamkorlar bilan pragmatik aloqalarni yo'lga qo'yishda o'z samaradorligini isbotlagan "Markaziy Osiyo plyus" formatlarini yanada rivojlantirish zarur.

Hozirgi bosqichda "Markaziy Osiyo plyus" formatlari va boshqa xalqaro muloqot maydonlarida mintaqaviy muvofiqlashuvni rivojlantirish, tashqi sheriklar bilan hamkorlik masalalari bo'yicha kelishilgan ustuvor yo'nalishlar va pozitsiyalarni ishlab chiqish strategik vazifaga aylanmoqda. Faqat shu yo'l bilangina jahonning yetakchi mamlakatlari va birlashmalari bilan hamkorligimizni davlatlarimiz va butun mintaqaning iqtisodiy hamda texnologik taraqqiyotiga, barqarorligiga xizmat qiladigan aniq loyihalar asosida boyitishimiz mumkin.

O'zbekiston uchun mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish taktik tanlov emas, balki Markaziy Osiyo kelajagi uchun umumiy mas'uliyatni anglashdan kelib chiqadigan ongli strategik qarordir.

Ishonchimiz komilki, global noaniqlik davrida yaxshi qo'shnihilik, hamjihatlik va o'zaro qo'llab-quvvatlash — Markaziy Osiyoning asosiy resursidir. Mintaqa mamlakatlari yakka holda hal qilishi qiyin bo'lgan umumiy xavfsizlik muammolari va rivojlanish vazifalari birgalikdagi sa'y-harakatlar bilan muvaffaqiylar hal qilinishi mumkin. Iшонch va sheriklikni mustahkamlash o'z kelajagini umumiy qadrdon diyorimiz — Markaziy Osiyoning tinchligi, barqarorligi va taraqqiyoti bilan bog'lagan millionlab odamlarning manfaatlariga javob beradi.

Bugun biz kuchli, barqaror va farovon mintaqa — Yangi Markaziy Osiyoning mustahkam poydevorini yaratmoqdamiz.

Mintaqamizda kechayotgan jarayonlar — bu ongli va ortga qaytmas tanlov. Ushbu yo'l bizdan nafaqat birgalikdagi sa'y-harakatlarni, balki umumiyl kelajagimizdagi mas'uliyatni o'z zimmamizga olishga tayyor bo'lishimizni ham talab qiladi.

Kuch va imkoniyatlarimizni birlashtirib, umumiy vazifalarni hal etmoqdamiz, shuningdek, xalqaro hamjamiyatga tinch va bunyodkor hamkorlikning **vaqt va hayot sinovidan o'tgan — ishonch, yaxshi qo'shnihilik va o'zaro qo'llab-quvvatlashga asoslangan o'z modelimizni** taklif etmoqdamiz. Va bugun Markaziy Osiyoni keng mintaqamizda yashayotgan barcha millat va xalqlar uchun yagona tinchlik, farovonlik va taraqqiyot makoniga aylantiradigan ushbu tarixiy sur'atni saqlab qolishimiz har qachongidan ham muhimdir.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

"Yangi O'zbekiston" gazetasining 13-noyabr 234-sonidan olindi.



Boshlanishi 1-sahifada.

Shu jumladan, lon-plazma va lazer texnologiyalari instituti Ubay Arifov sharafiga nomlangani bejiz emas.

Ubay Arifov 1909-yil 9-iyunda Qo'qon shahrida tavallud topgan. O'zbekiston davlat pedagogika akademiyasini tugatgan. Qariyb yarim asrlik faoliyati davomida 400 dan ortiq ilmiy ish, xususan, 15 ta monografiya va 20 dan ziyod ixtiro muallifi sifatida salmoqli ilmiy meros qoldirgan. Ustoz Yadro fizikasi instituti va Elektronika instituti asoschisi hisoblanadi. Faoliyati davomida O'zbekiston Fanlar akademiyasining prezidenti (1962–1966), Akademiyaning fizika-matematika fanlari bo'limi raisi va boshqa mas'ul lavozimlarda ishlagan. Akademik, fan arbobi va Beruniy nomidagi Davlat mukofoti laureati Ubay Arifov 1976-yil 24-dekabrda vafot etgan.


Domla tashkil qilib, o'zi rahbarlik qilgan Elektronika institutiga 2012-yilda olim nomi berilib, lon-plazma va lazer texnologiyalari instituti sifatida qayta tuzildi. Afuski, 2016-yil 2-mayda muassasa faoliyati tugatilib, ilmiy laboratoriyalar Toshkent davlat texnika universitetiga o'tkazildi. Yangi O'zbekistonda ilmiy-tadqiqot faoliyatining moddiy-texnik salohiyatini mustahkamlash va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan salmoqli ishlar amalga oshirish boshlangan 2017-yilda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qarori bilan U.A.Arifov nomidagi lon-plazma va lazer texnologiyalari instituti yangidan tashkil etildi.

– Ba'zan “yosh” fanlar haqida gap ketganda, hatto, tuppa-tuzuk odamlar ham “Shunga ham alohida institut shartmi?” deyishadi. lon-plazma va lazer texnologiyalari ham omma uchun mavhum va murakkab soha bo'lib ko'rinadi. Aslida, bu qanday tarmoq?

– Plazma bu aslida ionlashgan gazlar. Avvaliga ionlar soni ko'payishi ionlar dastasini shakllantiradi. Ularning soni, ya'ni zichligini tobora oshirganimizdan keyin ular plazma ko'rinishiga o'tadi. Bu moddaning tabiatdagi qattiq, suyuqlik, gaz holatlaridan keyingi to'rtinchi shaklidir.

Plazma ishlatilganda, ko'plab kimyoviy va fizik jarayonlarni tezlashtirish mumkin. Masalan, kimyoda faqat issiqlik ta'sirida ba'zan haftalab davom etadigan uzun reaksiyalar ham plazma ta'sirida bir necha daqiqa ichida ro'y beradi. Plazma yordamida haroratni boshqaramiz va energiya to'g'ridan to'g'ri kerakli nuqtaga uzatiladi. Hammamiz bilgan elektr payvandlash jarayonini olaylik. Ikkita detalni bir-biriga payvandlashda faqat issiqlik ishlatamiz, desak, ikkita butun detalni eritish kerak. Natijada, u o'z shaklini yo'qotadi, boshqa deformatsiyalar bo'ladi va keyin bir-biriga qo'shilib sovutiladi. Elektrodning uchida hosil bo'layotgan plazma yordamida esa belgilangan joyning o'ziga energiyani yo'naltirib, o'sha joyni eritib, bir-biriga bog'lashimiz, payvandlashimiz mumkin.

Bu eng oddiy va kundalik hayotda tez-tez uchraydigan misol, boshqa ko'plab jarayonlarda ham plazmani ishlatish imkoniyati mavjud. So'nggi yillarda plazmani qo'llash yordamida O'zbekistonda ishlab chiqariladigan perrenat ammoniyni qayta ishlashni amalga oshirdik. Perrenat ammoniy “Navoiyuran” davlat



korxonasida uran ishlab chiqarishning yondosh mahsuloti hisoblanib, tarkibida reniy bor. Xuddi shu singari, mis-molibden ishlab chiqarilganda, Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida ham yondosh mahsulot sifatida olinadi. Perrenat ammoniy reniy olishdagi oraliq mahsulot hisoblanadi.

E'tiborlisi, reniy jahonda keng tarqalmagan. Dunyoda bir yilda o'rtacha 50 tonna atrofida ishlab chiqarilsa, O'zbekistonda shuning 4-5 foizini qoplash imkoniyati bor. Bu juda ham muhim elementlardan biri hisoblanadi. Busiz raketa uchmaydi, fazo kemasining alangaga, issiqlikka bardoshli qismiga, albatta, reniy qo'shiladi. Shu paytgacha perrenat ammoniydan toza reniyni olish uchun o'n soatlab davom etadigan termik jarayondan foydalanib kelingan. Biz plazmadan foydalanib, ushbu jarayonning davomiyligini ikki soatgacha kamaytirib, vodorod gazining sarfini 20 barobardan 100 barobargacha kamaytirishga erishdik. Hozir bu ishlanmamizni “Navoiyuran” metallurgiya kombinatlarida ham joriy qilish bo'yicha ishlar olib borilyapti.

Muhimi shundaki, kerak bo'layotgan asbob-uskunaning hammasini institutda yasash imkoni bor.

– Demak, jarayonda vaqt va mablag' tejaladi. Importga ehtiyoj qolmagan holda, eksportdan iqtisodiyotga ko'proq foyda keladi. Bu ham fanning amaliyotdagi yutuqlaridan biri, shunday emasmi?

– Albatta. Texnologik asbob-uskunaning hammasini institutning o'zida to'liq tayyorlab, yetkazib, o'rnatib beramiz va qanday ishlashini o'rgatamiz. Bu ishlanma ikkita kombinatda to'liq sinovdan o'tib, yaxshi natijalar olindi. Ushbu ish o'zimizda ilk marta amalga oshirildi. Jahonda ilk bor kukunsimon moddaga plazmada uzoq payt ishlov berish imkoni yaratildi. Kukunsimon materiallarni plazmada ushlab turish muammosi shu paytgacha yechilmagan edi. Chunki kukun zarrachalari plazma ta'sirida har tomonga sochilib ketadi. Bizning mana shu ishlanmamiz yaratilganicha, plazmada ishlov

berish imkoniyati yo'q edi. Bu qurilma bizda o'ylab topilgani sababli, uni qo'llashda zarur bo'ladigan asbob-anjomlar hozircha boshqa yerda yo'q. Tayyor mahsulot bo'lmagandan keyin, uni o'zimiz ishlab chiqarishga o'tdik.

– lon-plazma va uning hayotga tatbiq qilinishi haqida foydali ma'lumotlar keltirib o'tdingiz. Suhbatimizni lazer texnologiyalari mavzusida davom ettirsak...

– Lazer yordamida juda ko'p jarayonlarni amalga oshirish mumkin. Lazer nuri yordamida metallarga ishlov berish, kesish kabi masalalar juda osonlashib ketdi. Hozir kichik xususiy korxonalarda ham lazer yordamida ancha ishlar qilinadi. Lekin bu lazerning hamma imkoniyati ochib berildi, degani emas. Hozir biz lazerning tibbiyotdagi o'rini kengaytirish bo'yicha hamkorlik loyihalarini amalga oshiryapmiz. Yorug'likning hujayraga qanday ta'sir qilishini kompyuterda modellashtiradigan alohida laboratoriyamiz bor. Juda ham kuchli guruh ishlaydi u yerda. Bu ishlar hosilasi shuki, tajribada ko'rib, sezib bo'lmaydigan, juda qisqa vaqt ichida sodir bo'layotgan jarayonlarni katta aniqlikda modellashtirib, amaliyotda qaysi jihatga ko'proq e'tibor berish kerakligi bo'yicha muhim ko'rsatmalarni ishlab chiqamiz.

Lazerning ham, ionlar, plazmaning ham qo'llanadigan sohasi keng, hammasini qamrab olib bo'lmaydi. Biz tadqiqotlarni respublikamizda dolzarb bo'lgan masalalarga yo'naltirishga harakat qilayapmiz. Masalan, “O'z kimyosanoat” AJ hamkorligida metandan vodorod ajratib olishning samarali usullari ustida ishlayapmiz.

To'g'ri, bu amaliyotda bor. Lekin O'zbekistonda qo'llanayotgan texnologiyada bir kilogramm vodorod gazini ishlab chiqarishda 9,5 kilogramm CO₂, ya'ni is gazi hosil bo'ladi. Agar uni boshqa joyda ishlata olmasangiz, yoyib utilitatsiya qilmasangiz, atmosferaga chiqarib yuborish kerak. Biroq issiqxona gazini kamaytirish bo'yicha xalqaro majburiyat bor. Shunda biz taklif qilgan usul yangi yechim bo'lishi mumkin. Bunda is gazi ishlab chiqarilmaydi. O'rninga yana bitta mahsu-

lot – qattiq uglerod olamiz. Bu bilan shinalar uchun import qilinadigan uglerod kukuni o'rini qoplash mumkin.

Ma'lumot uchun, mamlakatga bir yilda o'rtacha 4 ming tonna uglerod kukuni olib kiriladi. Shuningdek, kukunni turli bo'yoqlar, plastmassa ishlab chiqarish va boshqa sohalarda ishlatish mumkin. Tannarxi arzonlashgandan keyin uni ishlatish joyi ham ko'payadi.

– Bunday ulkan loyihalarni amalga oshirishda, tabiiyki, xorij tajribasini o'rganish va xorijdagilarga o'rgatish masalasi ham jarayonning bir qismini tashkil etadi. Bugungi kunda institutning hamkorlik geografiyasi qaysi hududlarni qamrab olgan?

– Jahon bilan uzviy va muntazam aloqalar fan rivojining muhim shartidir. Hozirda AQSH, Rossiya, Xitoy, Turkiya, Germaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya universitetlari, ilmiy-tekshirish institutlari bilan elektronika, quyosh energetikasi, fotonika, energiya saqlash tizimlari kabi dolzarb yo'nalishlarda hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Elektronika sohasi jadal rivojlanayapti. Bu esa jahonda kremniy materialiga bo'lgan talabni oshiryapti. Bundan tashqari, quyosh panellarining 95 foizdan ortig'i kremniy asosida tayyorlanadi. Kremniy olishda o'tgan asrning o'rtalarida yaratilgan xorli jarayon ishlatiladi. Bu hozirgi ekologik talablarga javob bermaydi. Dunyoda shu soha bo'yicha yetakchi o'rinni egallagan Xitoyda ham xorli chiqindilarni zararsizlantirish masalasi dolzarb bo'lib turibdi.

Biz ilmiy izlanishlar davomida muammoga yechim sifatida kremniyni xorli emas, balki spirtli texnologiya asosida olishni taklif qildik. Natijada, o'sha elektronika qurilmalari va quyosh panellari uchun kerak bo'ladigan kamida 99,99999999 foiz tozalikdagi kremniy olish imkoni yaratildi. Bu texnologiya o'zimiz qurgan laboratoriya qurilmasida bir necha marta dunyoning yetakchi ekspertlari ishtirokida sinovdan o'tkazilgan va jahonning kremniy texnologiyalari bo'yicha yetakchi hisoblangan mamlakatlarida patentlangan.

Bu bilan cheklanmay, olingan mahsulotlardan elektron qurilmalar yasash yo'nalishida ish olib boryapmiz. Bunda elektronkada o'ta yuqori tozalikdagi materiallar bilan ishlashimizga to'g'ri keladi. Demak, bu ishni qilganda, o'shanga yarasha shart-sharoit, infratuzilma zarur.

– Buning uchun institutda shart-sharoit yetarlimi?

– Gap avvalida aytib o'tganimdek, institutimizda oxirgi yillarda juda katta o'zgarishlar yuz berdi. Asosiy bino ta'mirlanganidan tashqari, maxsus sharoitlar, ya'ni elektronika talablariga to'liq javob beradigan maxsus xonalar qurildi. Bu yerda yil bo'yi havo harorati bir xil ushlanadi: 20,5 daraja issiq. Havoning namligi ham bir xil darajada saqlanadi. Agar havo qurib ketssa, yozda namlantirib kerakli darajaga keltiriladi yoki teskarisi, qishda quritiladi. Eng asosiysi, havoning tarkibidagi changlar kaskadli filtrlar yordamida keskin kamaytiriladi.

– Hotamjon Baxronovich, har bir fanning o'z maktablari bor. Institutda qaysi maktab vakillari faoliyat olib boryapti.

– O'tgan vaqt mobaynida muassasamizda bir necha ilmiy maktab shakllangan. Fotonika yo'nalishida professor Erkin Zohidov maktabida yetishib chiqqan uch nafar fan doktori, o'ndan ortiq falsafa doktorlari faoliyat yuritadi. Plazma texnologiyalari maktabida ham to'rt nafar fan doktori xamda o'ndan ortiq falsafa doktorlari o'z yo'nalishlarida tadqiqotlar olib boradi. Marhum akademik O'tkir Rasulev ilmiy maktabini hozirda shogirdi, professor Dilshodbek Usmonov muvaffaqiyatli davom ettirmoqda. Umidjon Xalilovning kompyuter modellashtirish maktabi ham ko'plab yosh iqtidorli tadqiqotchilarni jalb etib kelyapti.

Muhimi, bu maktablar silsilasi davom etmoqda va takomillashib bormoqda. Xo'sh, ular nega kerak? Ilmga yangi qadam qo'ygan yosh olimlar ishni birinchi qadamdan emas, kelgan joyidan davom ettirishi va yangi natijalarga erishishi uchun zarur. Shuning uchun ham tarmoqlar bo'yicha alohida institutlar tashkil etish tajribasi bor.

– lon-plazma va lazer texnologiyalari sohasining kelajagi va rejalarinigiz ham o'quvchilarimizni qiziqtiradi.

– Hozir taraqqiyot judayam tezlashib ketdi. Ayniqsa, sun'iy intellekt, kvant kompyuterlari va boshqa yo'nalishlar kirib kelishi bilan hayotda bir necha yilda katta o'zgarishlar yuz beryapti. Bu nimaga olib keladi? Demak, institutimiz oldida turgan vazifalarni aniq belgilab olishimiz zarur.

2030-yilgacha institutdagi infrastruktura-mizni yangilab, asosiy yo'nalishlarimizni aniqlab olishimiz kerak. Bu qaysilar bo'lishi mumkin? Bu – yangi materiallarni olish yoki ma'lum materiallarning yangi xususiyatlarini aniqlash hamda ular yordamida yangi asbob-uskuna va texnologiyalar yaratishdan iborat.

Masalan, buni konkretlashtirib, hozirda elektronikaning rivojlanishiga qaraylik. Sohaning rivojlanishi qiziq bir bosqichga kelgan. Hozirgi paytda yangi chiplarda 1.4 nanometrlil texnologiyalar joriy qilyapti. Yaqin yillarda texnologiyalar bir nanometrgacha ham tushishi mumkin. Undan pastga tushishning imkoniyati yo'q, chunki atom razmeriga borib tashlamiz. Keyingi etap qaysi tomonga qarab rivojlanadi? Bir nechta yo'li bor.

Keyingi rivojlanish yo'llaridan biri yangi yarim o'tkazgich materiallarni ishlab chiqishdir. Shuning uchun biz ham keyingi o'n yillikka oldimizga qo'ygan masalamizda yarim o'tkazgichli materiallar texnologiyalariga, ikki o'lchamli materiallarga o'tib, bir atom qatlamli qalinlikdagi yangi materiallar sinfini o'zlashtirishga kirishishimiz kerak.

Hali juda ko'p yechilmagan masalalar bor. Agar hozir boshlasak, ishlab chiqarishda talab shakllanganida, biz tayyor yechimlarga ega bo'lishimiz mumkin. O'shandagina biz ilmiy markaz sifatida dunyoda o'z o'rnimizni topamiz.

– Domla, shunday murakkab sohani o'quvchilarga sodda va foydali tarzda yetkazib berganingiz – samimiy suhbat uchun minnatdorlik bildiramiz.

Suhbatdosh:
Zarnigor IBROHIMOVA

TIBBIY TARAQQIYOT

Boshlanishi 1-sahifada.

Aholiga malakali tibbiy yordam ancha yaqinlashtirildi, murojaatlarga tezkorlik bilan javob berilmoqda. Ilgari faqat poytaxtda bajariladigan yuqori texnologik diagnostika va davolash usullari hududlarda ham yo'lga qo'yildi.

Ammo Prezidentimiz va xalqimizning ko'nglini to'ldirmayotgan muammolar ham bor. Masalan, O'zbekistonda har 10 ming aholiga 27 nafar shifokor to'g'ri keladi. Bu – AQSH, Buyuk Britaniya, Finlyandiya bilan bir xil ko'rsatkich. Garchi, bu raqam joiybi va yuqori bo'lsa-da, aholining tibbiy xizmatlardan qoniqlish darajasi past. Xo'sh, bunga nima sabab bo'lmoqda?

Avvalo, muammo kadrlar malakasi pastligi va zamonaviy bilimlarning yetishmasligida ko'rinadi. Eski usullar bilan davolash, noto'g'ri tashxis qo'yish holatlari tibbiyot sifatiga soya solmoqda. Ko'plab muassasalardagi eskirgan yoki yetarli bo'lmagan jihozlar va diagnostika uskunalari kasallikni aniqlash va davolash jarayonini murakkablashtiradi.

Ba'zi hollarda tibbiyot xodimlari-ning bemorga nisbatan e'tiborsizligi, muloqot madaniyatining pastligi yoki qabul jarayonidagi byurokratik to'siqlar ham sifatga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Sog'liqni saqlash tizimi ko'proq kasallikni davolashga yo'naltirilgan

bo'lib, kasalliklarning oldini olish, aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish ishlari yetarli darajada emas. Tez-tez uchraydigan korrupsiya holatlari, bemorlardan noqonuniy pul talab qilish kabi salbiy hodisalar ham odamlarning tibbiyotga ishonchini susaytiradi.

Prezidentimiz tomonidan ta'kidlanayotgan bu muammolar tizimda miqdor va sifat ko'rsatkichlariga jiddiy e'tibor qaratish zarurligini anglatadi. Shu yo'nalishlarda ishlohtlar ayniqsa, shifokor va hamshiralarning doimiy ravishda o'z bilim va ko'nikmalarini zamonaviy talablar asosida yangilab borishini ta'minlash, tibbiy xizmat ko'rsatishda bemor manfaatini ustuvor bilish, shaffoflik va ochiqlikka erishish, profilaktika ishlarni kuchaytirish, aholining tibbiy savodxonligini oshirish talab etiladi.

Davlat rahbari tibbiyot mutasaddilari oldiga jiddiy vazifalarni qo'ydi. Raqamlashtirish, xorijdan hamkor topish, klinik protokollarni yangilash, ilg'or diagnostika, profilaktika va davolashni uddalaydigan zamonaviy jamoani shakllantirish barcha tibbiyot markazlari, viloyat, tuman sog'liqni saqlash boshqarma va bo'limlarining birinchi navbatdagi vazifasi bo'lishi zarur. Qaysi mahallada, tumanda qanday kasallik ko'paygan yoki

kamayganini tahlil qilib, samarali davolash bo'yicha aniq reja bilan ishlash, respublika markazlari bunday tahlil va yondashuv bilan ishni pastda tashkil qilish, qimmatbaho zamonaviy uskunalardan samarali foydalanish har qachongidan dolzarbdir.


Shuningdek, tibbiyotda xalqning bahosini eshitadigan tizim joriy qilish kun tartibida turipti. Bemorlar yoki ularning yaqinlari o'z istak-xohishlari, arzi-dodlari istalgan manzilgacha yetib boradigan shaffof struktura yo'lga qo'yilishi shart. Har bir shifokor, tibbiyot muassasasi nomiga minnatdorlik yoki shikoyat ham el nazarida, jamoatchilik nigohida bo'lsagina soha hamda xalqimiz sog'lig'i kafolatlangan bo'ladi. Endilikda 26 ta markaz direktori, viloyat, tuman sog'liqni saqlash rahbarlari, oilaviy poliklinika mudirlari bir oylik aniq reja asosida ishlashga o'tadi. Ularni lavozimga qo'yishda ham yangi tartib joriy qilinadi. Tibbiyot muassasalarida rahbar va bosh shifokor lavozimlari bir-biridan ajratiladi. Rahbarlar menejerlikka o'qigan, yaxshi natijalar ko'rsatgan tadbirkorlar orasidan tayinlanadi.

Rag'batlantirish tizimi ham o'zgaradi. Eng namunalil viloyat, tuman sog'liqni saqlash bo'limlari, oilaviy poliklinika mudirlariga “O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan tibbiyot xodimi” unvoni, orden va

medallar, 30 million so'mdan pul mukofoti beriladi. Ular rahbarlik qilayotgan muassasa infratuzilmasini yaxshilashga 500 million so'mdan mablag' ajratiladi. Har bir viloyatdan eng yaxshi ikki tumanning sog'liqni saqlash bo'limi rahbari va oilaviy poliklinika mudiri AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Koreya, Turkiya kabi tibbiyot rivojlangan mamlakatlarga menejerlikka o'qish uchun yuboriladi.

Markaz shifokorlari o'z sohasida eng og'ir tuman va mahallaga borib, kasallik sabablarini o'rganadi, unga yechim beradi, oilaviy poliklinika va tumandagi vrachlarni kasallikni davolashga o'rgatadi. Bundan buyon viloyat va tuman sog'liqni saqlash rahbarlarining kunlik qabuli mahallada bo'ladi.

Kelgusi o'quv yilidan tibbiyot oliygohlarining bakalavr bosqichida pediatriya va davolash yo'nalishlarini o'z ichiga olgan umumiy tibbiyot fakulteti ochiladi. Ularda oilaviy shifokorlik mutaxassisligi bo'yicha rezidentura va magistratura ham yo'lga qo'yiladi. Endilikda oddiy muolaja qiladigan emas, tashxis, davolash va profilaktikada shifokorga ko'makchi bo'ladigan hamshiralarni tayyorlashga o'tiladi. Buning uchun Hamshiralar akademiyasi Toshkent davlat tibbiyot universiteti tasarrufiga o'tkazilib, negizida Oliy kasbiy tibbiyot akademiyasi tashkil qilinadi.



Kelgusi yildan barcha tibbiyot oliygohlarida oliy hamshiralik ishi yo'nalishi ochiladi va kvota 2 karra, 2027-yildan esa kamida 20 foizdan oshirib boriladi. Oliy ma'lumotga ega, shifokor bilan yonma-yon turadigan hamshiralarning mehnati munosib rag'batlantiriladi. Kelgusi yildan oliy ma'lumotli hamshiralarning maoshiga 100 foiz ustama beriladi. Ayni paytda o'rta ma'lumotli hamshiralarni tayyorlash tizimi ham o'zgartiriladi.

Tibbiyot xodimlarining malakasini uzluksiz oshirib boradigan yangi tizim bo'ladi. Kelgusi yildan malaka oshirishning masofaviy, robot-simulyator, amaliy, ish joyida mustaqil tayyorgarlik kabi turlari yo'lga qo'yiladi. Malaka oshirish tabablari va baholash mezonlarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan Uzluksiz kasbiy tibbiyot ta'limi markazi tashkil qilinadi. Tibbiyotda xususiy sektorni qo'llab-

quvvatlash va ularga qo'shimcha sharoitlarni yaratish ishlari davom ettiriladi. 2026-yildan tibbiy uskuna, jihoz va tez yordam mashinalarini olib kirish bo'yicha imtiyoz 3 yilga uzaytiriladi.

Prezidentimiz tomonidan qo'yilayotgan talablar O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimida yangi davr boshlanishidan dalolat beradi. Tizimdagi har bir bo'g'in, har bir rahbar zimmasiga katta mas'uliyat yuklanayotganini anglatadi. Endilikda natijadorlik, tashabbuskorlik, xalq salomatligini yaxshilash yo'lidagi aniq qadamlargina ularning faoliyatiga baho beradigan asosiy mezon bo'ladi. Bunday izchil chora-tadbirlar har bir fuqaroning sog'lom hayot kechirishi uchun mustahkam poydevor yaratib, yurtimizning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Jamoliddin BADALOV



XUSHXABAR BERGUVCHI VA OGOHLANTIRUVCHI

Boshlanishi 1-sahifada.

Yuksak adabiy san'at shakllangan she'rlarida ham mushriklar "Bismil-Lot val-Uzzo" deya butlarini zikr qilar, butlarni ulug'lash ta'limotlarining asosini tashkil etardi.

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vassallamga Qur'on nozil bo'lar ekan, mushriklar ul zotni yolg'onchiga, majnunga chiqaradi. "Qur'onni o'zi to'qib olgan", deyishgacha boradi. Ular "Biz bir majnun shoir uchun o'z ilohlarimizni tark etar ekanimizmi?" deya tavidga qarshi chiqar, tavid kalimasini aytganlar mushrik-butparastlar tomonidan mavjud tuzumga qarshi deb topilardi. Qur'on tilovat qilinyotganda odamlar eshitmasin uchun mushriklarning shovqin-suron va baqir-chaqir qilib turishini tasavvur qiling. Ular yana Makkada Valid ibn al-Mug'ira yoki Toifda Urva ibn Ma'sud singari odamlarni nazarda tutib: "Bu Qur'on ikki yurtdan bir ulug' kishiga nozil qilinishi lozim emasmi?" der edi. Hatto Abu Lahab va uning xotini kechqurun u zotga ozor-aziyat yetkazish uchun yo'llariga tikanlar tashlashadi.

Islom bayrog'i yuksala borgani sari Abu Jahl va ba'zi Quraysh mushrikleri tomonidan Rasulullohga o'z amakilari vositasida: "Xohlasa, unga vazirlik beraylik, faqat bizning butlarimizga qarshi gapirmasin", "Bir yil u bizning butlarimizga sig'inin, bir yil biz uning Allohiga ibodat qilaylik", deya turli takliflar ham aytiladi. Allohning Rasuli, tabiiyki, ularga Allohning bildirgan rad javobini beradi.

Insonlar manfaati uchun haq o'laroq nozil qilinmish tabarruk Kitobda: "Axir aql yuritmayisizlarmi?", "Ibrat olmayisizlarmi?", "Sizlar naqadar oz fikr qilursizlar", "Nechog' oz nasihat olursizlar!", "Alloh qilayotgan amallaringizdan bexabar emasdir", "Alloh qilayotgan amallaringizni g'oyat ko'rib turguvchidir" kabi ogoh etuvchi fikrlar eng ko'p takrorlanib kelishi bejiz emas. Lekin bu tanbehlardan "faqat aql egalari eslatma olurlar".

Qur'oni Karim insonlarni tinchtotuv yashashga chaqiradi. Quydagi tabarruk oyatlar bunga misoldir: "Yer yuzida zinhor fasod qilmanglar!", "Yer yuzida buzg'unchilik qilib (nizolar chiqarib, tinchlik nizo-



mini buzib) yurmanglar", "Birlirlaringiz bilan tanishingizlar (do'stlashib, yordamlashingizlar) deya sizlarni xalqlar va qabilalar – elatlar qilib qo'ydik", "Kimki o'z nafsining baxilligidan saqlansa, najot va saodatga erishganlar ana o'shalardir", "Har bir shaxs o'z qilmi-shining garovidadir (o'z qilgan amaliga bog'lab qo'yilgandir)", "Alloh adolat qilguvchilarni sevar", "Alloh zolimlarni sevmas", "Alloh haddan oshguvchilarni sevmas", "Alloh fasodni sevmas", "Fitna qotillikdan ham ashaddiyoqdir", "Kimki yaxshi bir ishga vositachi bo'lsa, undan o'ziga bir nasib (savob) bor. Kimki yomon bir (ishga) vositachi bo'lsa, (tag'in) undan o'ziga bir ulush (gunoh) bor", "Yomonlikning jazosi o'ziga teng yomonlikdir".

Muqaddas Kitob bandalarni hamisha yaxshilikka undaydi: "Xayr ishlarida musobaqa qilinglar!", "Kimki chin dildan bir yaxshi ish qilsa, muhaqqaq, Alloh Shokirdir – mukofotini berguvchidir", "Alloh yaxshilik qilguvchilarni sevar", "Alloh muhsinlarni – yaxshilik qilguvchilarni sevar", "O'zaro yaxshilik va ehsonni unutmanglar", "Bunday (yaxshi) amal qiluvchi zotlarning mukofoti qanday go'zaldir", "Kim to'g'ri yo'lga kelsa, faqat o'zi uchun to'g'ri yo'lga kelgan bo'lur", "Taqqo qilgan zotlarga "Rabbingiz nimani nozil qildi?" deyildi. Ular: "Yaxshilikni", dedilar, "Biz, albatta, amali go'zal bo'lgan kishining mukofotini aslo zoye' qilmasmiz".

Qur'oni Karimda yozilishicha: "Alloh o'zi xohlagan kishiga behisob rizq berur (uning martabasini baland

qilur)", "Hech bir kishi toqatidan ortiq narsaga taklif qilinmas", "Alloh o'zi xohlagan kishining (niyat va amallariga ko'ra) rizqini keng qilur va tor qilur". Bas, shunday ekan, noshukur banda Allohga xush kelmaydi. Zero, ne'matning shukrini ado qilmoq ne'matdan ham ulug'dir. Shu bois, qayta-qayta eslatma beriladiki: "Noshukurlik qilmanglar", "Shukr qilguvchilarni mukofotlarmiz", "Naqadar oz shukr qilursizlar!", "Biz noshukurdan boshqani jazolarmidik!", "Biz unga (insonga) to'g'ri yo'lni ko'rsatdik: xoh shukr qilguvchi, xoh nonko'r-noshukr bo'lur". Aksincha, har bir mushkulotga sabr qilmoq – eng ulug' savob. Chunki: "Alloh sabr qilguvchilar bilan birgadir", "Alloh sabrli (va sabotli)larni sevar", "Sabr qilmog'ingiz sizlar uchun yaxshiroqdir", "Kimki sabr qilsa va (yomonlikni) kechirsa, albatta, bu himmatli (xayrli) ishlardandir".

Yer yuzida toki tiriklik, hayot mavjud ekan, Yaratganning o'z bandalarini isrofdan saqlanish va insofni saqlashga da'vat etguvchi xitobi hamisha dolzarbdir: "Yenglar, ichinglar, faqat isrof qilmanglar. Chunki Alloh isrof qilguvchilarni sevmas", "O'Ichovni to'liq o'Ichanglar va kamaytirguvchilardan (birovning haqini yeguvchilardan) bo'lmanglar", "To'g'ri tarozi bilan tortinglar", "O'Ichov va tarozida hiyla qiluvchilarning holiga voy!", "Insonlarga narsalarini (haqlarini) kamaytirib bermanglar".

Insonni yaratgan, unga Qur'onni o'rgatgan, yer-u osmonni, jamiki jonzot, o't-o'lan-u daraxtlarni bunyod etgan, ikki dengizni uchrashtirib, oralariga bir to'siq qo'ygan, do'zax va jannatni barpo etgan ulug' Rabbimiz qudratiga oid "Rahmon" surasidagi jami 78-oyatning 31-oyatida: "Rabbingizning qaysi ne'matlarini yolg'on deya olursizlar?" degan savol ajib fasohat bilan takrorlanib keladi.

Muqaddas Kitobda "Tag'obun" surasi bor. Tag'obun kuni – ayb-u qusurga yo'l qo'ygan inson oxiratda o'z gunohlarini ko'rib, bu dunyoda aldanganini tan oladigan kundir. Hazrati Umar roziyallohu anhu vafotlaridan oldin: "Rabbimning azobidan emas, Unga mahjub (xijolat) holda borishdan qo'rqaman", degan ekanlar. "Qof" surasi mazmuniga

ko'ra, jahannamning bag'ri keng "U kun jahannamga: "To'ldingmi?" dermis. U: "Yana qo'shimcha bormi?" der" (30-oyat).

Alloh huzurida eng og'ir gunohlardan biri bandasining kibrga, manmanlikka berilmog'idir. Bir vaqtlar Muso va Horun alayhissalomdan keyin Tavrotni eng yaxshi bilgan shaxs afsonaviy boylikka ega Qorun edi. "Qasas" surasida ma'lum qilinishicha, Alloh taolo tomonidan unga shunday xazinalar berilgan ediki, uning kalitlarini ko'tarib yurishning o'ziyoq baquvvat jamoaga og'irlik qilardi. "Bu boylik menga faqat o'zimdagi ilm tufayli berildi", deya kerilardi Qorun. Oqibat, uni butun mulki bilan qo'shib yer yutdi. Arab shoiri Hofiz Ibrohimning: "Go'zal axloq bilan ziynatlanmagan ilm o'z egasini pastga otadigan ulov hayvoni kabidir", degan mazmundagi baytlari kibr bandalariga mos va muvofiqdir.

"Mutaffifiyn" surasida bayon etilishicha, Allohning amridan chiqqanlarning kitobi bor, u Sijjiyn deb ataladi. Unga yomon amallar bitib boriladi. Yaxshilarning kitobi esa Illiyyundir. Har banda yaxshilikni shior bilsa, "Hashr" surasidagi "ularning qalblari tarqoqdir" sifatidan yiroq bo'lsa, amallari Illiyyun sahifalarini bezab tursa, aslida, yashamoqdan bosh maqsad shu emasmi?

Qur'oni Karim – buyuk hikmatdir. "Baqara" surasining 269-oyatida yozilganidek: "Kingaki hikmat nasib etgan bo'lsa, muhaqqaq, unga ko'p yaxshilik berilibdi", "Agar bilmasangizlar, zikr ahlidan (muttaqiy va dinda sobitqadam bo'lgan olimlardan) so'ranglar" (Anbiyo surasi 7-oyat), deya eslatma beriladi Kitobda.

"Anvorul-Qur'on: Fayzul-Furqon" kitobi 2024-yili "Irfonnashr" nashriyotida chop etilgan. Tarjimon hamda qo'shimcha izohlar muallifi zahmatkash olim, zakiiy adib Mirzo Kenjabekdir. Kitobning o'zbek tilidagi mazkur yettinchi tarjimasini hurmatli ustozimizning 23 yillik mashaqqatli mehnatlari samarasidir. Izohtan ma'lum bo'lishicha, tarjima ishlari 2009-yilda nihoyasiga yetgan bo'lsa-da, uning so'nggi tahriri 2021-yili tugallangan. Yakuniga yetgan tarjima ustida yana uch yil tahrir ishlari olib borilgan ham tarjimonning ishga g'oyat yuksak mas'uliyat bilan yondashganidan dalolat beradi.

Ikrom ISKANDAR

13-NOYABR – USMON NOSIR TUG'ILGAN KUN

Usmon NOSIR



NIL VA RIM

(Tarix kitobidan)

I
Lampam yonur... Yaralangan qanotdek og'ir O'y bosadi. Yuragimda go'yo sel yog'ir. Qiynalaman. Tirishaman. Hushim parishon, O'tmish, hozir va kelajak ko'rinar – har on. Tirishaman, butun kuchim ko'zimga kelar; Chirog'imga parvonadek urinar yillar, – To'rt atrofiga to'lib ketar kuygan qanotga... Xayolimda: katta sahro, men minib otga – Shamoldan tez, bulutlardan yengil chopaman; Kuyib tushgan har qanotdan bir jon topaman. Termilaman o'lik ko'zga (nega qo'rqayin?). Barchasidan o'yib olib ko'zining oyin – Termilaman: qichqiradi yillar, odamlar, Eshitilar menga ular bosgan qadamlar...

II
Sariq qumlar orasidan qon rangli quyosh – Ko'tarilar. Nil oqadir – qullar to'kkan yosh. Faryodlarga chidolmaydi yer bilan osmon. Ro qayerda? Azirisa? Qiynaydi Tifon! Kimga yig'lab, kimdan madad kutsin qulmoq? Erki quldir, hayoti qul; bor xudolar belf! Kosasida suv yo'q, quruq xaltasi: non yo'q! Botayotgan quyosh kabi rangida qon yo'q. Ko'zida ko'z yo'q, belida bel yo'q, hayhot! Fir'avn uni chumoliday ezadi: voy dod!.. Fir'avnni hukmi qattiq, fir'avn xo'jayin, Xudolarga u manzurdir, hayoti tayin. Neki qilsa, o'zi bilir, o'zi hukmron, Misr bo'ylab Nil oqadar – "qullar to'kkan qon!"

III
To Minisidan Ramzesgacha, Ramzesdan nari "Malika qiz" Kleopatra hukmron davri. Undan tortib... yana uzoq, yana ko'p yillar Xarsang bilan yotqizilgan necha ming dillar. Ko'zyoshidan, dil toshidan qurilgan haykal Mag'rur turar, mag'rur boqar; hech biron mahal Na odamdan, na zamondan qo'rqmas asti u. G'azabini yutib o'lgan qullar dasti bu! Qullar... (Menman u qullarning o'lmas avlodi, Mana menman, u qullarning hech so'nmas yodi. Mana menman, falaklarga lov-lov o't qo'yib. Otalarimning boshidan poydevor o'yib, Ozodligim obidasin qurgan insonman! O'sha jonman, o'sha qonman va o'sha shonman!)

IV
Otim uchar (xayolimda) oldinga doim, Avval bahor osmonidek yig'lar gado Rim. Emchagida bir tomizim suti yo'q ona Go'dagini tosh ostiga bostirdi, ana! O'lim yaxshi, odam agar, shunday xor bo'lsa! Bir parcha non nima o'zi? Shunga zor bo'lsa! Nahot, chaqmoq yondirmaydi butun ochunni? Kul gardiday umr – tog'day kulfat uchunmi? Javob bergin menga, zakki qadimgi Xomer, Ko'zyoshi-yu, qonga rostdan tashnami bu yer? Qo'y, yaxshi chol! Ko'nglim to'ldi, gaplashamiz so'ng, Bu nimasi? Eshitasanmi, og'ir, hazin mung? Hamon yig'lar yalang'och Rim, hamon dil ezar, Hamon tilla qadahda qon ichar Sezar!

V
Rim ustida shamsiyadek tumanli osmon, Katta sirkka sig'ishmasdan qaynar olomon: "Odam bilan hayvon o'yin ko'rsatar emish..." (Bunday qiliq bizning uchun qandayin erish!..) Tishlarini irjaytirib bo'kirgan yo'lbars To'rt tarafga tashlanadi, talpinib lars-lars. Och ko'zlari qonga to'lgan, sakrab o'ynaydi... O, bechora, qoch! U seni tirik qo'ymaydi! Ana! Ana, tirmog'ini nishlab kelar u. Changa sold! Xalq o'midan birdan turdi duv... Chapak chaldi. "Ey, ahmoq Rim, sevinma qonga! Bundan boshqa xo'rlik bormi, axir, insonga?" – Dedi, parcha-parcha bo'lgan gladiator. Rim – o'yindan o'lim kutgan jinni teatr!

VI
Issiq izlar... hamon u isyondan is bordak, Bulutlarning orasinda yurar Spartak, Osmon – qalqon, kamon yoyi – chaqmoq, yonar o't, Zulm uchun yig'i, fig'on va erksizlik sud. Javob bersin. Afloتونmi, Vergiliymi, yo – Boshqa biri, qani kim? Kim mard? Kim guvoh? Ki, tun qancha qora bo'lsa, oy shuncha yorug'! Spartakning lashkarlari hali ham borur. Mana menman, u isyonning o'lmas avlodi. Mana menman, u qullarning hech so'nmas yodi. Mana menman, falaklarga lov-lov o't qo'yib, Otalarimning boshidan poydevor o'yib, Kelajagim obidasin qurgan insonman! O'sha jonman, o'sha qonman va o'sha shonman!!!

1935-yil.

JADIDSHUNOSLIK

Bugun dunyo tez o'zgaryapti. Biroq har qanday yangilik, har qanday tarqoqliy asosida bitta qadriyat – bilim va ma'rifat turadi. Kitob esa shu qadriyatning hamisha suyansa bo'ladigan eng ishonchli ustuni, tayanchi. Bu jarayonda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan "Yoshlar uchun ming kitob" loyihasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Loyiha doirasida chop etilgan ilmiy-ommalab adabiyotlardan biri "Musulmon madaniyati islohoti siyosati: Markaziy Osiyoda jadidchilik" asaridir.

Asar muallifi – amerikalik tarixchi olim Adib Xolid. Chikago universitetida PhD darajasini olgan, Minnesotadagi Universitet kolleji, Vashingtonsin-Minnesota universiteti kabi ko'plab ta'lim muassasalarida Osiyo tadqiqotlari va tarixi bo'yicha professor sifatida faoliyat yuritgan.

"Markaziy Osiyoda jadidchilik" kitobi ilk bor 1998-yili chop etiliboq, jahon ilm ahlining e'tiborini qozonadi. Keyinchalik ingliz, turk, rus va boshqa tillarga tarjima qilinib, bugungi kunda dunyo universitetlarida Markaziy Osiyo ma'rifatparvarlik harakatlari bo'yicha asosiy manba sifatida o'qitilmoqda. Quvonarlisi, endi bu asarni ona tilimizda o'qish imkoniga egamiz. Kitob yozuvchi Sharifjon Ahmad tarjimasida "Akademnashr" tomonidan o'zbek kitobxonlariga taqdim etildi.

Sharifjon Ahmad nomi kitobxonlarga juda yaxshi tanish – "Bir tushning evrilishlari" asari muallifi; jahon adabiyotidan ko'plab noyob asarlar tarjimoni. Xususan, "Mushuklar malikasi

YANGI ASAR, YANGI TASAVVUR

Minush" (Anna Shmidt), "Al-Muhtasimga yaqinlashuv" hikoyalar to'plami (Xorxe Luis Borxes), "Jon" romani (Andrey Platonov), "Argentinaning birinchi raqamli adibi" Xulio Kortasar, livanlik Xalil Jubron, meksikalik Karlos Fuentes asarlarini ona tilimizga muvaffaqiyatli o'g'irgan.

Tarjimon suhbatlaridan birida shunday degandi: "Bugun mana bu asarni tarjima qilishga kirishaman, deb darrov qaror qilish bilan ish bitmaydi. Boshqar madaniy hududtigidan sizga hududga qalam tebratgan yoki tebratayotgan, zehniyati mutlaqo boshqa adibning olami baribir sizga begona dunyodir". Biroq "Markaziy Osiyoda jadidchilik" tarjimonga zinhor begona emas. Chunki yozuvchi bu olam chuqurliklariga sho'ng'ib o'sgan. Shu bois Adib Xolidning murakkab ilmiy mulohazalari tarjimada bor bo'yicha payqaladi, asar ingliz tilidan o'g'irilgandek emas, o'z tilimizda yozilgandek tasavvur beradi.

"Tarixnavisligi ularning nomini ochiq-lashdan ko'ra xaspo'shlashni afzal bildi, – deydi muallif. – Ko'plab ismlar (Behbudiy, Cho'pon, Fitrat) tarix darsliklaridan shunchaki o'chirib tashlandi, boshqalari uchun esa (Hamza, Avloniy, Qodiriy) mafkuraga mos tarjimayi hollar o'yab topildi. Markaziy Osiyoning yaqin o'tmishiga doir noma'lum qolayotgan jihatlarini shu tarzda qayta kashf qilishga to'g'ri

keladi. Ushbu kitobning bosh maqsadi ham shu".

Asar tuzilish jihatidan o'rinni tartiblanib, jadid harakatining tarixiy, ijtimoiy va ma'naviy qirralari qadamma-qadam yoritiladi. Shu tariqa, kitob "XIX asrda ma'rifat va jamiyat", "Kolonial jamiyat barposi", "Jadidchilik sarchashmasi", "Pand-nasihatlar siyosati", "Ta'lim – xalos", "Millat tasavvuri", "Millatga yetakchilik", "1917: Tugunlar yechilajak zamon" kabi boblarni o'z ichiga oladi. Amerikalik atqoli antropolog va islomshunos, "Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo" kitobi muallifi Deyl Eykelman yozganidek: "Boshqa olimlar ham jadidlik harakatini tadqiq qilgan, ammo hech kim bu tadqiqotga Adib Xolid kabi ilmiy va ijtimoiy tarix nuqtayi nazaridan kontekstli yondashmagan".

Muallif asar ustidagi izlanishlarida, xususan, Toshkentning tarixiy va ma'naviy muhitini ilmiy tahlil markaziga qo'yadi. Asar ayni holga kelguniga qadar u turli tillardagi o'nlab davriy nashr hamda yuzlab ilmiy va adabiy manbalarga murojaat etadi. Turkiston tarixi bilan bog'liq arxiv hujjatlari, matbuot materiallari va zamonaviy tadqiqotlarni qiyosiy o'rganib, jadidlik harakatining ilmiy asoslangan, kitobxon ko'z o'ngida tarixiy jihatdan to'liq tasvirini gavdalanitiradi. Shu jihatdan, ushbu asarni arxivlar, matbuot va davr ruhi asosida qayta



tiklangan ma'naviy jarayon, desak adashmaymiz.

Ushbu muhim kitob tarjimasiga qo'l urilishining o'ziyoq, aslida, tariximiz va ma'naviy merosimizga bo'lgan munosabatimizni bildiradi. Asarda ilgari surilgan fikrlar ham bugungi islohotlar va ma'naviy uyg'inish ruhiga hamnafas, hamohang. Ushbu xayrli tashabbus jadidlar haqidagi ilmiy izlanishlarimizni yana bir pog'ona yuqori ko'tarishi, shubhasiz. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Biz xalqaro ilmiy markazlar, dunyo olimlari bilan hamkorlikda jadidlar faoliyatini yanada chuqur o'rganishni dolzarb vazifa deb hisoblaymiz. Bu noyob meros orqali bugungi kunda insoniyatni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topa olamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadriini anglab yetadi". Ishonamiz, "Markaziy Osiyoda jadidchilik" kitobi yoshlarni ana shu anglovlariga tezroq eltadi.

Akmal JUMAMURODOV

Boshlanishi 1-sahifada.

Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning raqamli axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt(SI)ni rivojlantirishga doir tashabbuslari texnologik siyosatning yangi bosqichi, milliy ong, madaniyat va ma’naviyatni himoya qilishning ilmiy-falsafiy strategiyasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Aslida, Siga inson ongini almashtiruvchi sifatida emas, uni kengaytiruvchi, tizimlashtiruvchi va qayta dasturlovchi vosita sifatida qarashimiz zarur. Falsafiy nuqtayi nazardan, sun’iy intellekt–insonning o’zini anglash jarayonining yangi bosqichi. U inson ongining tashqi modellashuvi hamdir. Lekin bu jarayon axloqiy, ma’naviy va milliy o’lchamlarga ham ega.

Agar SI algoritmlar orqaligina ishlasa, u neytral emas; chunki har bir algoritm ma’lum madaniyat, til, qadriyatlar bilan tuziladi. Shuning uchun ham bugun milliy axborot makonida SIni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish madaniy suverenitetni ta’minlash harakati, deyish to’g’riroq.

Axborot globallashtirish davrida til madaniy himoya qalqoni hamdir. Milliy til raqamli muhitda faol bo’lmasa, u asta-sekinlik bilan axborot jarayonlaridan siqib chiqariladi. Milliy tilni raqamli muhitga joriy etish, axborot tizimlarining o’zbek tili asosida ishlashini ta’minlash kabi yo’nalishlardagi islohotlar aynan shu xavfni bartaraf etishga qaratilgan. Bu jarayon faqat lingvistik emas, falsafiy jarayon hamdir. Chunki til ongning shakli. Milliy til raqamli muhitda faol bo’lsa, milliy ong ham raqamli olamda yashaydi. Agar til sust bo’lsa, millat ongi ham shunday bo’lib qoladi.

Axborot asrida insoniyat uchun eng katta tahdid manipulyatsiya qilingan ma’lumotdir. Bugungi dunyoda yolg’on haqiqatdan tezroq tarqalmoqda. Shuning uchun axborot iste’moli madaniyatini shakllantirish muhim. Bu jarayon tufayli yoshlarda axborot manipulyatsiyasiga qarshi immunitet hosil bo’ladi. Milliy til raqamli hayotga moslashadi. Milliy madaniyat raqamli shaklda yashay boshlaydi. Eng muhimi, inson ongi sun’iy ong bilan hamkorlikda yangi “ong sivilizatsiyasi”ga qadam qo’yadi.

MAFKURAVIY GLOBALLASHUV VA AXLOQ TANAZZULI

Mafkuraviy globallashtirish – bu zamonaviy davrda milliy qadriyatlar va madaniyatlar o’rtasidagi muvozanatni buzuvchi yangi jarayondir. U tashqi ta’sir orqali xalqlarning urf-odatlarini, tili va dunyoqarashini bir xil qilipga solishga intiladi. Agar ilgari mustamlakachilik iqtisodiy yoki siyosiy xarakterda bo’lgan bo’lsa, bugungi kunda u axborot va g’oyalarni maydonida kechmoqda. Bu jarayon milliy ongni kuchsizlantirib, shaxsning o’z madaniyatidan uzoqlashishiga sabab bo’ladi.



“
Shavkati inson erur ilm-u adab,
E’tibor etmas anga nasl-u nasab.
Abdulla AVLONIY
”



Milliy til, madaniyat va urf-odatlar insonning ma’naviy identifikatsiyasini ta’minlovchi asosiy omillardan biridir. Biroq virtual muhitda global kontent ustuvorligi tufayli ko’p millatlar o’z tilida raqamli mahsulotlar yaratish borasida ortda qolmoqda. Natijada yosh avlod o’z madaniyatini qolib, boshqa millatning qadriyatlarini o’ziga singdirib olayotganini sezmayapti. Bu holatni falsafiy nuqtayi nazardan “madaniy assimilyatsiya” deb atash mumkin. Ya’ni, butun bir xalq boshqa madaniyat ta’sirida o’z qadriyatlarini ildizini unutib, begona madaniyatga singib ketadi.

Mafkuraviy globallashtirish asosiy oqibati milliy o’ziga xoslikning yo’qolishidir. Til, urf-odat, axloq va ma’naviyat – millatning ruhiy me’mori. Agar unga ziyon yetrsa, millatning tarixiy xotirasi va ma’naviy birdamligi ham yo’qoladi. Shu nuqtayi nazardan, virtual muhitda milliy til va madaniyatni muhofaza qilish strategik ahamiyatga ega vazifa. Bugun dunyodagi ko’plab davlatlar o’z raqamli makonida milliy tilni ommalashtirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqmoqda.

Mafkuraviy globallashtirish yana bir salbiy jihati–axloqiy me’yorlarning yangicha ma’noda talqin qilinishidir. Virtual muhitda “erkin fikrlash” shiori ostida qadimdan shakllangan axloqiy chegaralar inkor etilmoqda. Bu jarayon falsafiy jihatdan axloq tanazzulining asosiy sabablaridan biri. Zamonaviy virtual muhit “o’zing uchun yasha” degan egosentrik falsafani ilgari surmoqda. Bu esa insonni jamoaviy mas’uliyatdan uzoqlashtirib, axloqni faqat shaxsiy manfaat nuqtayi nazaridan baholash tendensiyasini kuchaytiradi.

Aslida, axloq jamiyatning ma’naviy immunitetidir. U shaxsni nafaqat yomonlikdan, balki ma’naviy inqirozdan ham asraydi. Ammo raqamli muhitda bu immunitet zaiflashmoqda. E’tibor qilsangiz, inson qadriyatlarini layklar, trendlar va virtual ma’qullashlar bilan o’lchana boshlandi. Mehr, hurmat, sadoqat kabi tushunchalar

ko’pincha sun’iy kontent ko’rinishida namoyon bo’lmoqda. Masalan, ba’zi yoshlar ota-onaga bo’lgan muhabbatni amal bilan emas, “video ehtiram” orqali ifoda etishni ma’qul ko’ra boshladi. Bu holatda ma’naviyat shakli sifatida saqlansa-da, mazmun jihatidan bo’shab boradi.

Axloq tanazzuli – bu faqat shaxsiy muammo emas, balki jamiyat barqarorligi uchun tahdiddir. Chunki axloqsiz fuqaro ma’naviyatsiz jamiyatning oddiy chiqindisi, xolos. Shuning uchun axloqni faqat diniy yoki ma’rifiy tizim orqali emas, balki raqamli madaniyat vositalari orqali ham mustahkamlash zarur. Milliy kontent, podkastlar, vizual ta’lim platformalari, kino va animatsiya orqali yoshlarga axloqni zamonaviy tilda yetkazish kerak. Negaki, ma’naviyat taqiy bilan emas, ma’rifat bilan muhofaza qilinadi.

Bu nuqtayi nazardan qaralsa, raqamli texnologiyalar axloqning dushmani emas, uning yangicha ifodasi bo’lishi mumkin. Agar ular axloqiy nazorat va milliy qadriyatlar asosida boshqarilsa, texnologiya ma’naviyatning xizmatkoriga aylanadi. Shuning uchun “virtual tahdid” tushunchasini “axborot inqirozi”dan ko’ra kengroq ma’noda qabul qilib, inson ma’naviyati uchun imtihon sifatida ham ko’rish kerak. Undan o’tish uchun jamiyat axborot madaniyatini, tanqidiy tafakkurni va milliy axloqni bir butun tizim sifatida qayta shakllantirishi zarur.

MA’NAVIY VA ILMIIY YONDASHUV

Insoniyat tarixida har bir yangi sivilizatsiya bosqichi ong va qadriyatlar sinoviga ham aylangan. Bugun esa dunyo sun’iy idrok va raqamli ong asriga qadam qo’ydi. Bu davrda har bir mamlakatning nufuzi va raqobatbardoshligi iqtisodiy yoki harbiy kuchdan ko’ra ko’proq uning aqliy va ma’naviy salohiyati bilan belgilanmoqda.

Shu bois, **“Bugun insoniyat yangi sivilizatsiya bosqichiga – sun’iy intellekt davriga dadil qadam qo’yimoqda. Bu texnologiyalar iqtisodiyotdan tortib, ta’lim va boshqaruv tizimigacha chuqur kirib bormoqda. Kim bu jarayonda izlansa, natija qilsa, marra shuniki bo’ladi”**, deydi O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.

Bu so’zlarda ilmiy da’vatdan tashqari bugunning chin haqiqati

ham mujassam. Bu haqiqat axborot madaniyati masalasidir. Aynan shu omil hozirgi zamonning milliy xavfsizlik va ma’naviy barqarorligining asosi sanaladi.

Raqamli dunyoda inson ongi ustidan ta’sir o’tkazish usullari tobora murakkablashib bormoqda. Bugun ma’naviy xavfsizlik davlat xavfsizligining ajralmas qismiga aylandi. Tarixdan ma’lumki, har qanday mag’lubiyatga g’oyaviy bo’shliq sabab bo’lgan. Shuning uchun raqamli dunyodagi eng katta muvaffaqiyat – inson ongi himoyasi, fikr mustaqilligi va axborot ustidan nazoratni yo’qotmaslikdir.

Ma’naviy barqarorlik esa kelajakka talpingan ong bilan yashashdir. Shu ma’noda, barcha, har bir ta’lim muassasasi va har bir OAV ma’naviy mudofaa tizimining muhim bo’g’ini bo’lishi shart.

Feyk (yolg’on) xabarlar, manipulyatsiya, virtual illyuziya va odamni axborot orqali boshqarish mexanizmlari inson tafakkuriga ta’sirsiz emasligini barchamiz ko’rib, bilib, guvohi bo’lib kelmoqdamiz. Bu esa milliy g’oya va ma’naviy barqarorlikka nisbatan yangi turdagi tahdid demakdir. Bunday sharoitda axborotni qabul qilish asnosida shu tahlil qiladigan, tanlaydigan va ma’naviy mezonlar asosida baholaydigan avlodni tarbiyalash, shu maqsadga xizmat qiluvchi media markazlar ishini yanada takomillashtirish mamlakat va jamiyat oldidagi strategik vazifaga aylanadi. Negaki, raqamli muhitda mustaqil fikrlash, manbaga ishonishdan avval uni tahlil qilish salohiyatini shakllantirish hozirgi zamonning “aqliy gigiyenasi”ga aylandi.

Bundan tashqari, axborot maydonida milliy til, urf-odat va qadriyatlar mavqeyini mustahkamlash ham ma’naviy, ham strategik ahamiyatga ega. Raqamli makonda o’zbek tilidagi podkastlar, ta’lim platformalari, multimedia kurslari, filmlar va infografikalarni yaratish milliy madaniyatimiz uchun raqamli himoya qalqoni vazifasini o’taydi.

Agar milliy kontent yetarli bo’lmasa, yoshlar boshqa madaniyat va qadriyatlarga moyil bo’lib qoladi. Shuning uchun raqamli maydonda milliy obrazni targ’ib qiluvchi loyihalar, mobil ilovalar, axborot resurslari davlat va jamiyat hamkorligida qo’llab-quvvatlanishi, har bir soha va yo’nalishda faoliyat

ko’rsatishi nazarda tutilgan media markazlar soni oshirilishi shart. Virtual tahdidlarga qarshi samarali kurash texnik choralar bilan ham cheklanib qolmasligi kerak. Bu yo’nalishda sotsiologik, psixologik va axborot tahlillari asosida ilmiy ishlanmalarga suyanan tizimli yondashuv zarur. Negaki, inson ongini manipulyatsiya qilish usullari, yoshlar ongiga ta’sir etuvchi trendlar va axborot muhitining emotsional muhiti muntazam o’rganib borishni talab qiladi. Bu o’rganishlar asosida esa ma’naviy profilaktika dasturlari, motivatsion kontent va ta’limga oid yangidan yangi loyihalar ishlab chiqiladi.

Ana shunda virtual olamda dominantlik qilayotgan til yoki madaniyat yoshlar ongi ustidan hukmronlik qilolmaydi, chunki bu holatda milliy tilimiz va milliy madaniyatimizning o’zi bu olamning dominantlaridan biriga aylanadi. Faqat shundagina biz raqamli asrda sun’iy idrok ustidan inson ongining ustuvorligini saqlab qolishimiz mumkin bo’ladi.

TARAQQIYOTNING MA’NAVIY DRAYVERI

XXI asrga kelib sun’iy intellekt (SI) insoniyat taraqqiyotining strategik omillaridan biriga aylandi. U iqtisodiy samara beruvchi vosita, inson ongini kengaytiruvchi ilmiy va ma’naviy jarayon hamdir. Jahon iqtisodiyotida SI industriyasining ulushi 2030-yilga borib 20 trillion dollardan oshishi kutilmoqda. Bu raqam faqat iqtisodiy o’sish barobarida intellektual resursning yangicha shaklda moddiy-lashuvini ham ifoda etadi.

O‘zbekiston ham bu jarayondan chetda qolayotgani yo’q. 2024-yili Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan SI texnologiyalarini iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga joriy etish, milliy ma’lumotlar bazasini yaratish va ochiq ma’lumotlar ektizimini rivojlantirish, milliy axborot xavfsizligi va axloqiy me’yorlarni ta’minlash, innovatsion kadrlar tayyorlash va ta’lim tizimini raqamli asosda qayta qurishni maqsad qilgan “Sun’iy intellektni 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi” qabul qilingan. Bu hujjat mamlakatda SI sohasini huquqiy va institutsional jihatdan qo’llab-quvvatlashning asosiy poydevorini yaratmoqda.

Bu yo’nalishda Raqamli texnologiyalar vazirligi huzurida SI bo’yicha maxsus markaz tashkil etildi. Qisqa vaqt ichida 30 dan ziyod pilot loyihalar amalga oshirildi. Davlat xizmatlarida “aqli yordamchi” tizimlari ishga tushirildi, bank va sug’urta tizimlarida SI asosida xavf tahlili amalga oshirila boshladi, transport va shahar boshqaruvida “aqli shahar” modellari joriy etildi. Natijada, O‘zbekiston 2024-yil yakunlariga ko’ra Siga tayyorgarlik bo’yicha xalqaro indeksda 17 pog’ona yuqorilab, Markaziy Osiyoda birinchi o’rinni egalladi.

Bu natijalarning zamirida texnik modernizatsiya bilan birga ma’naviy paradigma ham yotadi. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek: **“Sun’iy intellekt dasturlari samarali ishlaydi**



Habibullo SADIBAQOSEV,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasining
Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha birinchi prorektori,
siyosiy fanlar doktori

uchun ular avvalo o’zbek tili va madaniyatini tushunishi kerak”.

SI rivojining markazida inson turishi lozim. Agar sun’iy intellekt milliy axloq va madaniyat asosida boshqarilsa, u faqat texnik yordamchi emas, balki ma’rifiy taraqqiyot vositasiga aylanadi. Bu Yangi O‘zbekistonning “texnologiya insonni emas, inson texnologiyani boshqarishi kerak”, degan tamoyilni ilgari surayotgan falsafiy dasturidir.

Shu nuqtayi nazardan, SI va axloq munosabatini “aql va vijdon sintezi” sifatida talqin qilish mumkin. Texnologiya ilmini tezlashtirsa, axloq uni to’g’ri yo’naltiradi. Faqat shundagina yangi sivilizatsiya – ma’rifat va ma’naviyatga asoslangan raqamli jamiyat vujudga keladi.

Ma’vzu yuzasidan xulosa qilib aytganda, axborot asri inson ongi, axloqi va ma’naviyatini sinovdan o’tkazayotgan davrga aylandi. Bu sinovda inson o’z ongi va vijdoni bilan ham bellashmoqda. Ayni zamonda virtual muhitning ta’siri kishilarga, ayniqsa yoshlarga nisbatan shunchalik kuchaydiki, u endi hayotning qo’shimcha qismi emas, ongning bir qismiga aylanib bormoqda. Shu sababli, jamiyat oldidagi asosiy vazifa – texnologiyani inson ruhiga bo’ysundirish, axborotni ma’rifat vositasiga aylantirish bo’lib qoldi.

Maqolada qayta-qayta ta’kidlaganimizdek, “virtual tahdid”ga qarshi turish kiberxavfsizlik yoki axborot nazorati axloqiy masalasi bo’lish bilan birga inson ongini, axloqi va milliy qadriyatlarini muhofaza qilish muammosi hamdir. Bu tahdidning ildizi insonning o’z fikri ustidan nazoratni yo’qotishida. Uning samarali yechimi esa – axborotni taqirlash emas, aksincha, uni to’g’ri anglash, tahlil qilish va ma’naviy nazorat orqali boshqarishdir.

Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy jamiyatning asosiy strategik vazifasi axborot madaniyatini shakllantirish, milliy g’oyani raqamli formatda ifoda etish va sun’iy idrokni inson axloqi bilan uyg’unlashtirishdan iborat. Yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirish, ularga texnik bilim berish qatorida ma’naviy immunitetini mustahkamlashdir.

Negaki, axborot madaniyati yoshlarning ruhiy barqarorligini, fikr mustaqilligini va axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatini ta’minlaydi.

Falsafiy jihatdan olib qaraganda, XXI asrdagi eng katta inqilob – bu ilm va axloqning qayta uyg’unlashuvi bo’lib qoldi. Ilm insonga qudrat beradi, axloq esa yo’nalish. Axloqsiz ilm xavfli, ilmsiz axloq esa kuchsiz. Shuning uchun Yangi O‘zbekiston falsafasi ilmiy axloq bilan, texnologiyani ma’rifat bilan, sun’iy idrokni vijdon bilan uyg’unlashtirishdir.

JAHON AYYONIDA

TRAMP AHOLIGA PUL TARQATMOQCHI

Amerika prezidenti Donald Tramp mamlakat aholisiga kamida 2000 dollardan pul tarqatilishi haqida gapirdi. U bojlardan tushadigan pulni amerikaliklar o’rtasida teng taqsimlamoqchi.

“Tariflarga qarshi odamlar – ahmoqlar. Biz hozir dunyodagi eng boy va hurmatga sazovor davlatimiz. Inflyatsiya deyarli nolga teng, fond bozorida rekordlar. Biz trillion dollarlab foyda olamiz va tez orada 37 trillionlik davlat qarzini to’lashni boshlaymiz. AQSHga rekord miqdorda investitsiya kiritilmoqda, hamma yerda zavod, fabrikalar

qurilyapti. Daromadi yuqori odamlardan tashqari hammaga 2000 dollardan kam bo’lmagan dividend to’lanadi”, deb yozdi Tramp.

13 SOATLIK ISH KUNI

Gretsiya hukumati xususiy sektorda ish smenalarini kuniga 13 soat-gacha uzaytirish imkonini beruvchi yangi qonun qabul qildi. Bu haqda **“The Independent”** xabar berdi.

Hukumat mazkur qarorni moslashuvchanlik va rivojlanish deb talqin qilmoqda. Qonun rasmiy ravishda ixtiyoriy va adolatli to’lov asosida deb ko’rsatilgan bo’lsa-da, u amalda klassik sakkiz soatlik ish kunini

bekor qiladi. Aholi orasida o’tkazilgan so’rovlar grek ishchilari bu o’zgarishga keskin qarshi ekanini ko’rsatmoqda.

XAVFLI ROBOTLAR

Buyuk Britaniya va AQSH olimlari sun’iy intellekt (SI)ga asoslangan robotlar borasida tadqiqot olib bordi. Natijalarga ko’ra, SI bilan ishlaydigan robotlar kundalik hayotda odamlarning shaxsiy foydalanishi uchun xavfli deb topildi. Bu haqda **“Euronews”** xabar berdi.

Tadqiqot natijalari **“International Journal of Social Robots”** jurnalida e’lon qilingan. Unda olimlar SI robotlar

odamlarning shaxsiy ma’lumotlariga, jumladan, ularning irqi, jinsi, nogironlik holati, millati va dini haqida axborotga ega bo’lganda o’zini qanday tutishini baholagan.

2352 YILLIK QAMOQ

Istanbul sobiq meri Akrom Imomo’g’li 142 ta korrupsion jinoyatda ayblandi. Unga 828 yildan 2352 yilgacha qamoq jazosi tahdid solmoqda. Bu haqda **“BBC”** xabar berdi.

Imomo’g’li prezident Rajab Toyib Erdo’g’onning asosiy siyosiy raqibi sifati tanilgan. U mart oyidan beri korrup-

siyada gumonlanib, tergov izolyatorida saqlanmoqda.

ODAMLAR ABADIY YASHASHI MUMKIN

Tadbirkor Ilon Maskning aytishicha, atigi 20 yil ichida insonlar o’z onglarini robotlarga o’tkazish orqali xotira va shaxsiyatini sun’iy tanaga ko’chirish imkoniga ega bo’lishi mumkin. Bu haqda u **“Lex Fridman”** podkastida gapirdi.

Mask bunday texnologiya insoniyatni “raqamli abadiylikka” yaqinlashtirishi mumkinligini ta’kidlagan.



Amerika prezidenti Donald Tramp mamlakat aholisiga kamida 2000 dollardan pul tarqatilishi haqida gapirdi. U bojlardan tushadigan pulni amerikaliklar o’rtasida teng taqsimlamoqchi.

“Tariflarga qarshi odamlar – ahmoqlar. Biz hozir dunyodagi eng boy va hurmatga sazovor davlatimiz. Inflyatsiya deyarli nolga teng, fond bozorida rekordlar. Biz trillion dollarlab foyda olamiz va tez orada 37 trillionlik davlat qarzini to’lashni boshlaymiz. AQSHga rekord miqdorda investitsiya kiritilmoqda, hamma yerda zavod, fabrikalar



Gretsiya hukumati xususiy sektorda ish smenalarini kuniga 13 soat-gacha uzaytirish imkonini beruvchi yangi qonun qabul qildi. Bu haqda “The Independent” xabar berdi.



Buyuk Britaniya va AQSH olimlari sun’iy intellekt (SI)ga asoslangan robotlar borasida tadqiqot olib bordi. Natijalarga ko’ra, SI bilan ishlaydigan robotlar kundalik hayotda odamlarning shaxsiy foydalanishi uchun xavfli deb topildi. Bu haqda “Euronews” xabar berdi.



Istanbul sobiq meri Akrom Imomo’g’li 142 ta korrupsion jinoyatda ayblandi. Unga 828 yildan 2352 yilgacha qamoq jazosi tahdid solmoqda. Bu haqda “BBC” xabar berdi.



Tadbirkor Ilon Maskning aytishicha, atigi 20 yil ichida insonlar o’z onglarini robotlarga o’tkazish orqali xotira va shaxsiyatini sun’iy tanaga ko’chirish imkoniga ega bo’lishi mumkin. Bu haqda u “Lex Fridman” podkastida gapirdi.



OYDINLAR

SERQIRRA ISTE'DOD

Bugun O'zbekiston Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida taniqli adabiyotshunos olim va tarjimon, “Mehnat shuhrati” ordeni sohibi, filologiya fanlari nomzodi, professor Ergash Ochilov tavalludining 60 yilligi munosabati bilan “Filologiyaning dolzarb masalalari” mavzusida respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi o'tkazilmoqda.

Shogirdmisan – shogird! Darvoqe, ustozlar haqida shogirdlar yozishiga ko'nikkanmiz-u, teskarisini juda kam uchratamiz. Biroq...

Yaqinda bir ukamiz professor ilmiy unvonini oldi. Ko'p tanishlar kaminani tabrikлади ham, ba'zilar “ayb”imizni yuzimizga soldi ham: “Shogirdingiz sizdan oldin professor bo'libdi, yuraverasizmi?” dedi-da. Biz ham gap yeydiganlar toifasidan emasmiz-ku: “O'g'li o'zidan oldin fan doktori bo'lganiga “chidagan” odam bunisiga ham “chidaydi”, hech xavotir olmang”, dedim.

Zullisonaynlik. Shogirdimiz 1965-yilning 15-noyabr kuni Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi ikki tilli qishloqda tug'ilib o'sgan. Bu makonning “Yangiqishloq” deb nomlanishi ham bejiz emas. U yerga atrof tevarakdagi o'zbek va tojik qishloqlaridan xalq keyinchalik ko'chib kelib, o'rnatilgan. Bolalikdan ikki tilni baravar bilib o'sgani keyinchalik uning ijodida o'zak yo'nalishni belgilab berdi.

Sobit yo'li. Uni talabalik yillari taniganman. Bunga ham, qarang, 51 yil bo'libdi. Bu orada ToshDUning jurnalistika fakulteti kechki bo'limini imtiyozli diplom bilan bitirdi. O'qish davrida va undan keyin ham bir muddat Toshkent shahridagi “Toshkitob” savdo idorasida ekspeditor bo'lib ishladi. O'sha yillari o'z ma'nosida kitoblarga ko'milib-burkani yashadi. Qo'lga tushgan kitobni o'qidi o'zi ham.

Fors-tojik tilidagi ruboiylarning o'zbekcha tarjimalari tahliliga bag'ishlangan diplom ishi yozib, yoqladi. Keyin bu tadqiqotini davom ettirib, 1994-yili kaminaning ilmiy rahbarligi va ustozim Najmiddin Komilovning ilmiy maslahatchiliklarida “Ruboiy tarjimasida shakl va mazmun birligi” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.

1992-yildan O'zbekiston Fanlar akademiyasi hozirgi O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida xizmat qilib kelmoqda. 2025-yildan XX asr “O'zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon” bo'limiga mudirlik qilyapti.

Muharrirlik. Kamina 1980–1984-yillari “O'zbek tili va adabiyoti” jurnali mas'ul kotibining yordamchisi bo'lib ishlaganman. Jurnal materiallari institutda tayyorlanar, lekin tahrir ishlarini “Fan” nashriyotining maxsus katta muharriri amalga oshirar edi. 2000-yildan buyon bu ukamiz – shu jurnalning mas'ul kotibi. Yordamchisi yo'q. Tahrir ishlari ham o'zining zimmasida. Holbuki, tahrir – alohida ish. U, ochig'i, hamma qalamkashning ham qo'lidan kelavermaydi. Yana bir kishining bo'yniga bir yilda 6 ta son chiqarish mas'uliyati yuklangan. Injiq-injiq mualliflar bilan ishlashning o'zini aytig.

Muallimlik. Bir donishmand: “Yo olim, yo muallim, yo some' bo'li” degan ekan. Olim muayyan masalani tadqiq etib, ilmiy xulosalar chiqaradi. Muallim mavjud bilimlarni yoshlarga dars orqali yetkazadi. “Some” so'zi “eshituvchi”, “tinglovchi”, yana ham aniqlashtirilsa, “talaba”, “shogird” ma'nosini ifodalaydi.

Ukamiz – ham olim, ham muallim. 2004-yildan buyon o'rindoshlik asosida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistrantlari va talabalariga tarjima-shunoslik yo'nalishidagi fanlardan dars berib keladi.

Diapozon. U yozgan, tarjima qilgan va nashrga tayyorlangan kitoblarning umumiy adadi – 147 ta. Ular qalamkash uyidagi kitob javonlarining birini liq to'ldirib turibdi. Turkiy

va forsiy xalqlar mumtoz adabiyoti, adabiy aloqa va badiiy tarjima masalalari bilan shug'ullanadi. Rus, fors, tojik, dariy, turkman, ozarbayjon, tatar, qoraqalpog' tillaridan she'riy va nasriy tarjimalar qiladi. 500 dan ortiq ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalari chop etilgan. 20 ta monografiyasi nashr qilindi. Shuningdek, 50 dan ziyod maqola va tezisi Rossiya, Eron, Turkiya, Hindiston, Ozarbayjon, Turkmaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikistondagi nufuzli nashrlarda bosilgan.

Noshirlik. “Noshir” so'zini ko'proq tor ma'noda, ya'ni “nashriyot xodimi” sifatida ishlatamiz. Xo'sh, o'tmishda yaratilgan mumtoz asarlarni zamonaviy alifboda nashrga tayyorlashga ixtisoslashgan mutaxassisni kim deb ataymiz? U ham noshir, ya'ni nashrga tayyorlovchi. Bu mumtoz adabiyot tarixi mutaxassislarining hammasiga ham nasib etavermaydi. U 77 to'plamni nashrga tayyorlagan.

Chop etilayotgan 200 jildlik “O'zbek adabiyoti xazinasidan” turkumi uchun Adib Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” dostonini o'zbek tiliga tabdil qildi, Sakkokiy, G'aribiy, Shohiy, Ubaydiy, Avaz, Uvaysiy, Dilshod, Anbar Otin devonlarini nashrga tayyorladi, “Forsiyzabon o'zbek shoirlari” jildini tarjima qildi.

Tarjimonlik sharafi. Asli, u shoir edi. Uni ilm sari burdik. Shoirig'i tarjimonlikka aylandi. Chunki qunt bilan fors-tojik tili va bu tildagi adabiyotni puxta o'rgandi. Avval forsiydan turkiyga she'riy tarjimalar xususiyatlari, qonuniyatlari, tamoyillarini ilman o'rgangan bo'lsa, keyin o'zi ham bevosita tarjimaga qo'l urdi. Qo'l urganda ham, katta matonat, mehnat-mashaqqatni bo'yniga olgan holda bu ishga kirishdi. Keyin boshqa turkiy tillarda ijod qilgan mumtoz shoirlar asarlarini ham o'girdi.

Bugun g'alvimi suvdan ko'tarsak, uning tarjimalari bosilgan kitoblar soni 40 dan oshadi: Mullanafas, Abdurahmon

Jomiy, Umar Xayyom, Maxtumquli, Sa'diy Sheroziy, Adib Ahmad Yugnakiy, Jaloliddin Rumiy, Abdulxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband kitoblari va “Afg'oniston xalqlari og'zaki she'riyatidan namunalar” shular jumlasidan. 200 dan ortiq forsiyzabon shoirning jami 10 mingga yaqin ruboiylarini tarjima qildi. Uning tarjimasida 40 ta to'plam nashr qilingan.

Ustoz. Uch nafar filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), 20 ga yaqin magistrlik dissertatsiyasiga ilmiy rahbarlik qilgan. Yana ikki tadqiqotchi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), ikki magistrant magistr ilmiy darajasini olish uchun uning rahbarligida ilmiy izlanishlar olib bormoqda.

Ilm odobi. Ba'zilar bilimga ega bo'ladi-yu, ilm odobini o'zlashtira olmaydi. Oqibatda ko'p qoqiladi, obro'sizlanadi. Nazardan ham qoladi. Ukamiz ilm odobini institutda ishlagan Izzat Sulton, Abduqodir Hayitmetov, Salohiddin Mamajonov, To'ra Mirzayev, Erik Karimov, Mamatqul Jo'rayev kabi yetuk ustozlardan, albattaki, antik davrning buyuk allomasi Suqrot aytganidek, ayrim ilm odobiga amal qilishni eplay olmay o'tib ketganlardan ham o'rgandi.

Rag'bat. O'zbek adabiyoti va adabiyotshunosligini rivojlantirish yo'lidagi ko'p yillik samarali mehnatlari uchun 2021-yili O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan “Mehnat shuhrati” ordeni, turkman adabiyotini tadqiq etish va adabiy asarlarni tarjima qilish borasidagi faol ishlari uchun 2014-yili Turkmanistonning xalqaro “Maxtumquli Firog'iy” medali bilan taqdirlandi.

Hajvga moyillik yoxud quvvayi hofiza. Biz faoliyatini yoritayotgan olimning xotirasi, ya'ni quvvayi hofizasi kuchli. Bir eshitgani yoki o'qigani uncha-munchaga yodidan chiqmaydi. Ayniqsa, ustozlari, hamkasblari haqidagi hangomalarini yozib ham yuradi. Hatto, kamina bilan bog'liq hangomalarini



ham “Kitob dunyosi” gazetasida chiqargan. Professor Boqijon To'xliyev hangomalarini kitob tarzida chop ettirgan.

Ustozmi yo shogird? Birgal Namangan-ga bordim. Islom Sharqi mumtoz she'riyatiga qattiq qiziqadigan muxlislar davrasiga tushib qoldim. Gap aylanib, ko'p fors-tojik mumtoz shoirlari she'rlarining o'zbekchaga tarjima qilinganiga borib taqaldi. So'zsiz, Shoislom Shomuhamedov, Jamol Kamol, Ergash Ochil tilga olindi. Maqtangim kelib: “Ergash Ochil – kaminaning birinchi shogirdi”, dedim. Yashirmayman, bir muxlis bu gapga aslo ishonmasa bo'ladimi: “To'xtang, to'xtang, Ergash Ochil sizning shogirdingizmi yo siz Ergash Ochilning shogirdlaringizmi?” dedi. Shunday buyuk shoirlarni o'zbekchada sayratgan tarjimonni kaminadan ham yoshi ulug' bir zot deb bilarkan-da u kishi. “Ha, u kishi chor hukumati davrida Buxoro madrasalaridan birida o'qiganlar”, dedim hazillashib. Shogirdining bunday ta'rifi, obro'-e'tibori qaysi ustozga yoqmaydi, deysiz?

Shuncha gapdan kelib chiqadigan yaxlit xulosa bitta: qani edi, qo'lga qalam tutgan har bir ijodkor xalqqa Ergashjonchalik xizmat qilsa!.. Bu yo'lda unga omadlar, bardamlilik-baquvvatlik, sog'liq-salomatlik va oldingilardan ham kuchliroq ilhom tilaymiz

Sultonmurod OLIM,
filologiya fanlari doktori,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
madaniyat xodimi

QIYOS

Hazorasp mol bozorida g'alati savdoni ko'rib, bir zum angrayib qoldim. Simto'r tortilgan tirgakich oldida turgan traktorchi atrofini o'ragan odamlar orasida ko'rak savdosini qizitardi: “Bir kilogramm kunjara yetti ming so'm. Kunjara degani chigitning qoldig'i bo'lsa. Mana, bir pristep ko'rak – uch tonnadan kam emas. Kilosiga ming so'mdan so'rayapman”.

Angrayganim sababi taqvimda hali oktyabr oyi yakunlanmagani, ayrim joylarda paxta terimi davom etayotgani, to'g'risini aytсам, shu yoshga kirib ochiqdan ochiq, yana bozorda ko'rak sotilayotganini ilk bora ko'rib turganim edi. Axir ikki dona ko'rak sabab yaqin o'tmishimizda qancha insonlarning taqdiri barbod bo'lgan: urilish-surilishlar mayli, qamalib ketganlarni ham bilamiz.

...1957-yilning yakunida o'sha vaqtdagi respublika rahbari N.Muhiddinov paxta rejasini bir amallab bajargan voha dehqonlarini qutlash, kelgusi hosil tadorigi bilan tanishish uchun Xorazmga keladi. Bizning Qulon Qorabog' qishlog'iga yo'li tushganida, g'o'zapoyadan bo'shagan maydonlar shudgor qilinayotgan bo'ladi. Respublika rahbari shudgor sifatini ko'zdan kechirish uchun otizga kiradi va yangi haydalgan tuproq orasidan ikki dona ko'rak topib oladi. Ertasi kuni viloyatda o'tgan tezkor yig'ilishda “Ikki ko'rak masalasi” muhokama qilindi. N.Muhiddinov “sotsialistik mulkka zarar yetkazgan” xo'jalik raisi N.Saidovni partiyadan o'chirish va javobgarlikka tortishni taklif qiladi.

Urushdan buyon xo'jalikka rishul qilib, uni ilg'orlar safiga olib chiqqani uchun ikkita orden bilan taqdirlangan qirq yashar rais boshiga tushayotgan taqdir zarbasidan o'zini yo'qotib, majlisda besh daqiqa bosh yalang'ochlab turgan onlarida qand kasalini orttiradi va so'ng bevaqt vafot etadi. Nurilla Saidovning ajdodlari uzoq umr ko'ruvchilar bo'lib, otasi Said buva to'qson uch, amakilari Jumaboy va Ahmad salkam yuz yoshga kirishgan. Ikki dona ko'rak voqeasi qirq yashar yigit umrini bir lahza teng yarmiga qisqartirib yuboradi. Hosildan bo'shagan maydon shudgor qilingan sanaga e'tibor bering: 1957-yilning 27-dekabri.

Bog'otning Qorayantog' qishlog'ilik Jahongir Madaminov ijodkor o'qituvchi bo'lib, tuman va viloyat gazetalarda turli mavzulardagi maqolalari ketma-ket chop qilinir, o'zbek tili va adabiyotini maktablarda o'qitish bo'yicha uslubiy risola ham yozgandi. Tumanda bo'layotgan nohaqliklar haqida yuqoriga ariza yozadi-yu boshiga qora kunlar tushadi – qamalib ketadi. Uning bor-yo'q “jinoyat”i uyida so'qimga

IKKI DONA KO'RAK...

yoxud achchiq xotira

boqayotgan ho'kizi qornidan ikki dona ko'rak chiqqani edi. Aslida, o'sha ikki dona ko'rakni organ xodimlari cho'ntagida olib kelib, ho'kizga yedirishgan. Ho'kiz qornidan topilgan ikki dona ko'rak ijodkor o'qituvchi umrini zoye qiladi. U besh yil qamoqda yotib qaytgach, maktabga borishdan uyali, boshqa sohalarida ishlashga majbur bo'ladi.

Naymanlik bir brigada boshlig'i dala boshida kolxozchilarga g'o'za chekankasini tezroq yakunlash haqida topshiriq berayotgan vaqtda minib kelgan oti pushta chetidagi g'o'zapoyaga tumshuq urib, ikki-uch ko'ragini yeydi. Kimdir darhol “chaquv” beradi. Otni so'yib ko'rganlarida, qornidan ikki dona ko'rak qoldig'i chiqadi. Ot kolxozga tegishli bo'lgan, ammo brigadir “mas'uliyatsizlik bilan kolxoz mulkiga zarar yetkazgani” uchun besh yilga qamalib ketadi. Bu voqea o'tgan asrning 60-yillari boshida ro'y bergan.

Yana bir ko'z ko'rib, quloq eshitmagan voqea: 1970-yil yoz adog'ida respublika rahbarlari vohaga kelib, paxta yetishtirish jarayoni bilan tanishadi. O'sha vaqtda respublika Oliy Soveti Prezidiumi raisi bo'lib ishlagan Y.Nasriddinova boshchiligidagi guruh Bog'ot tumanida g'o'zalar ahvoli bilan tanishib yurganlarida nogoh Narimonov nomidagi xo'jalik paxtazorida bo'sh yurgan sigimi ko'rib qoladi. Nasriddinova xo'jalikning mashhur Qahramon raisi I.Do'sovga brigadirmi partiyadan o'chirib, mahkamaga tortish buyrug'ini beradi.

Ertasiga Xiva tumanida respublika ishchi guruhi o'rganishlari natijasiga bag'ishlagan yig'ilish bo'lib o'tadi. Nasriddinova joylardagi ahvol bo'yicha ma'ruza qilar ekan, kutilmaganda Do'sovdan: “Kecha paxtaga mo'z ko'yib yuborgan brigadir partiyadan o'chirildimi, jinoyi javobgarlikka tortildimi?” deb so'rab qoladi. Do'sov “sigir voqeasi” bu darajaga borishini o'ylamagan, urushdan buyon yonma-yon ishlab kelayotgan, ilg'orligi uchun orden-medallar bilan taqdirlangan brigadirga tanbeh berish

bilan cheklangandi. Qaltis vaziyatda buni aytish boshiga balo bo'lishini anglagan rais to'satdan tiliga kelgan gapni aytib yuboradi: “Brigadir qilgan ishidan ko'p pushaymon bo'lib, rosa ichikkan ekan, kecha omonatini topshirdi”. Raisning yolg'oni sabab omon qolgan brigadir yana chorak asr umr ko'rdi. O'sha sanada “vafot etgani haqidagi ma'lumotnoma”ni keyin tengqurlariga ko'rsatib, kulib yurdi...

Jamoa xo'jaliklari tugatilib, yerlar xususiy mulkka aylantirilgan davrda qisqa muddat paxta va bug'doychilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaligi tashkil qildim. Kech kuzda, noyabr oyi oxirlarida paxta rejasini bajarib, dalani g'o'zapoyadan tozalash vaqtda aynan “ikki ko'rak” mojarosi mening ham boshimga tushdi. Daladagi g'o'zapoyani yig'ishtirib yurgan ayolim poyada qolgan besh-olti ko'rakni peshkiliga soladi va uy tomonga kelayotganida tasodif tuman hokimi o'rinbosari peshkilini ko'zdan kechirib, ichidan chiqqan olti dona ko'rakni “jinoiyatni aks ettiruvchi ashyoviy dalil” sifatida bayonnoma tuzib, olib ketadi. “Ko'rak mojarosi” uchun hokimlikka qatnab, tushuntirishlar yozdim va “birovlarni o'rtaga qo'yib”, jarima bilan zo'rg'a qutuldim.

Bugun (to'g'rirog'i, bu yil) bozorda ko'rak ochiqdan ochiq sotilayotgani ham, aslida, qishloq xo'jaligida so'nggi yillarda olib borilayotgan islohotlarning samarasi. Bu mavsum vohada ko'z ochib-yumguncha o'tdi – reja bir oydan sal ko'proq vaqtda uddalandi. Xorijdan keltirilgan va mahalliy paxta navlarining tezisharligi, hosildorligi natijasi bu. Bir terimdayoq 50 sentnerlik xirmon uygan fermerlar bo'ldi. Hatto ayrim fermerlar yetishtirgan hosil rekord ko'rsatkichlarni qayd etdi – 75 sentnerlik marra ilk bora uddalandi. Va yana, voha tarixida ilk bor sentyabr oyi adog'idayoq paxtasi terib olingan dalalar g'o'zapoyalardan tozalani, ochiq maydonlarga kuzgi bug'doy urug'i sepildi. Viloyat tarixida hech qachon aqarab boshlanmasdan g'o'zapoya chopig'iga ruxsat berilmagandi.



Rejani oshirib bajargan fermerlar dalada qolgan ortiqcha paxtani aholiga terib olib, ro'zg'orda ko'rpa-to'shakka ishlatishga ruxsat berishganiga nima deysiz? Axir, yaqin-yaqinlargacha ham reja bajarilmasa, ichki ishlar xodimlari uyma-uy yurib, paxta izlashardi. Uyidan yarim qop paxta chiqqan bechoralar mahkamaga tortilardi.

Istiqlol lug'atimizga ajdodlardan meros bo'lgan “xususiy mulk” so'zini qaytardi. Xususiy mulk fuqaroning ilkidagi mulki bo'lib, uni o'zi istaganicha tasarruf etish huquqiga ega. Xohlasa, o'zi ishlatadi, xohlasa, sotadi, xohlasa, ehson qiladi. Fermer xo'jaliklari egalari ham, shu ma'noda, o'zlarini yetishtirgan hosil o'zlariga tegishli ekanini ayni shu mavsumda tushunib yetishdi, deyish mumkin. Avval fermerlar garchi rejani bajargan bo'lsalar-da, toki viloyat yoki tuman rejadan chiqmaguncha, paxta topshirish majburiyatidan qutulmasdi. Eng yomoni, oktyabr oyida rejani bajargan fermer dekabir oyi o'talariga dalasini g'o'zapoyadan tozalab, yerlarni shudgor qilishga kirisha olmasdi. Eski zamonlardan qolgan “so'nggi chanog'igacha yig'ishtirib olish” siyosatiga barcha birdek amal qilardi. Shu bois, fermer kuzgi bug'doyini ikki marta terib olingan g'o'zapoya oralig'iga ekishga majbur bo'lar, bu usulda ekilgan urug' dalaga tekis tushmas, hosili ham shunga yarasha tosh bosardi. Sababi, so'nggi terim vaqtda nimjon bug'doy nihollari oyoqosti bo'lar, qish adog'ida g'o'zapoyani o'rib olish vaqtda ham anchagina nihollar boy berilardi. Bu yil ilk marta sentyabr oxirida g'o'zapoyasi yig'ishtirilgan ochiq maydonlarga bug'doy ekildi.

O'tgan asrning 50-yillarida o'rtaga tashlangan “Paxta – milliy boyligimiz” shiori istiqlol davrida ham uzoq vaqt ta'sir kuchini saqlab qoldi. Yaqinlargacha ham “paxtazorda mol boqqan” yoki “ko'rag-u paxtasini o'g'irlagan” kabi ayblovlar jinoyat hisoblanib, o'sha sigir yoki qo'ylar musodara qilinir, egasi jazo olardi. Boqayotgan jonivori nogoh arqonini uzib o'zini

dalaga urishidan hech kim kafolatlanmagan, aslida. Shu mantiqsiz jazo yigirma yillar bug'doyzorlarda kuz-qish oylarida uchragan chorvaga nisbatan ham qo'llanildi. Arqonini uzib bir qarich bo'y tortgan bug'doyzorga kirgan chorva mollari shu yerdayoq so'yilib, go'shti ehtiyojmand oilalarga tarqatilgani haqidagi xabarlar “oynavi jahon” orqali namoyish qilinardi.

Kimlardir o'ylab topgan bu jazoni mantiqsiz deyishimizga sabab, bu yoqda iqtisodiy jinoyat sodir qilgan mas'ullar yetkazgan zararni qoplasa jazodan ozod qilinishi qonuniylashtirilgani-yu, u yoqda ikkita ko'rak uchun misli ko'rilmagan jazo turlari... O'sha ikkita ko'rakdan chiqadigan paxta sovet davri narxlarida bir tiyin, istiqlol zamonida bir necha yuz so'mga yaqin turardi. Qolaversa, endilikda o'sha ko'rak davlatniki emas, fermerga tegishli. Qaysi fermer o'zi dehqonchilik qilayotgan hududda yashovchilarni qon qaqshatishni istaydi, deysiz! Shunday holat ro'y bersa, chorva egasini ogohlantirish bilan cheklanardi, xolos. Masala bilan huquq organlari shug'ullanganida, ish jiddiy – siyosiy tus olib ketardi.

Uzog'-u yaqin o'tmishda millatimiz boshiga tushgan ko'pgina kulfatlar aynan “paxta zulmi” bilan bog'liq bo'lgani yuqoridagi misollarda yaqqol ko'rinadi.

Bozorda ko'rak sotayotgan traktorchi voqeasiga qaytamiz. Traktorchi bu ko'rakni qaydandir o'g'irlab olmagani. Qaysidir fermer rejani oshig'i bilan bajargan va qolgan-qutgan ko'raklarni yig'ishtirib olishga ruxsat bergan. Bir tomondan, ko'rakni sotish orqali qo'shimcha daromad qiladi, chorva boqayotgan odamlarga nafi tegadi. Ikkinchi tomondan, o'sha “so'nggi chanoqlar”ni yig'ishtirib olish fermerga zarar keltiradi. Chala pishgan ko'raklar ochilishini kutishi kerak. Undan chiqqan paxtani zavodlar eng so'nggi navlarga qabul qiladi – beradigan puli xarajatining yarmini ham qoplamaydi.

Joriy mavsumda qaysidir viloyatda hosildan bo'shagan g'o'zapoyalarni yoqib tashlash orqali dalani qo'shimcha mineral o'g'itlash tajribasi qo'llangani haqida ham xabarlar chiqdi.

Bugun yurtimizda olib borilayotgan islohotlar inson manfaatiga xizmat qilishi haqida ko'p gapiramiz. Ana shu insonparvarlik g'oyalarga yo'g'rilgan siyosat samarasini kun sayin anglayapmiz, ro'y berayotgan voqealarda kuzatyapmiz. Kuni kecha “million egatlarga sochilgan o'zbek” bugun o'z qadr-qimmatini angladi, topdi. Ikki dona ko'rak uchun javobgarlikka tortilib, taqdiri poymol bo'lgan insonlar haqidagi voqealar go'yo ertakka aylandi.

Ro'zimboy HASAN



MILLAT FIDOYLARI



Bo'taboy Dadaboyev (1887–1938)

**Ahli donishlardan biri
aytadi: “Hayot kemasi mehnat
langariga suyanmasa,
shamollar-u dovullarga
dosh berolmaydi”. Bugungi
shahrimizda hayot kemasi
dovul-u bo'ronlarga yo'liqqan
yirik shaxsiyat – oddiy
ishchilikdan tortib huquq-
tartibot tizimlarida rahbarlik
darajasigacha yo'lni bosib
o'tgan Bo'taboy Dadaboyev
haqida hikoya qilamiz.**

Bo'taboy Dadaboyev 1887-yili Namangan viloyatining Chust shahrida ishchi oilasida dunyoga keldi. Bolalik yillari (agar buni bolalik atab bo'lsa) og'ir mehnat, ehtiyojlar, oila kam-ko'stini butlash bilan andarmon o'tdi. Dastlab diniy, so'ng rus-tuzem maktabida xat-savod chiqarayotgan bolakay otadan erta yetim qoldi. Oilaning to'ng'ichi edi. Ro'zg'orning bor yuki o'n uch yoshli bolakay jussasiga tushdi. Bola bo'lib hali o'yinga, o'qishga to'yib ulgurmagan Bo'taboy chaqmoq “yilt” etib chaqarlik oniy lahzada ulg'aydiqu, ukalariga ota o'rnida bo'ldi. Oilada undan tashqari yana uch farzand, onasi hamda ko'zi ojiz buvisi bor edi.

Bo'taboy shu tariqa mehnatga kirdi. Turgan gapki, bu yoshda o'spiring kimsa ish tutqazib qo'ymasdi. Faqat yugur-yugurlarda qo'l-oyoq bo'lishi mumkin edi, xolos. Oldiniga Niyozxo'ja ismli paxta komissioneri xonadonida xizmatkorlik qildi, keyin teri va paxta tozalash korxonalarida ishchi, so'ngra Namangandagi taniqli savdogar Alperov magazinida qorovul bo'lib ishladi. Keyinroq ish izlab Toshkentga keldi va shahar tibbiy ambulatoriyasida qorovul hamda xat tashuvchi bo'ldi. Har oy maoshidan 15 so'mni Chustga – oilasiga yuborib turardi.

Qismat qahramonimiz boshiga tag'in og'ir sinov yo'lladi. Bo'taboy onasidan ham ajrab qoldi. O'sha chog'da feldsher oilasida yashab, ruscha savod chiqarishga endi-endi ko'nikib borayotgan yigit ota uyga qaytishga majbur bo'ldi. Chustda uni ko'zi ojiz buvisi va ukalari ilhaq kutardi.

Qahramonimiz Toshkentdan qaytarkan, Chustda tayinli ish topolmaydi. 1908-yili Chodakda bo'lis boshqaruvchisining devon-xonasida xizmat qila boshlaydi. Bu davrda bo'lis idoralarini mahalliy boshqaruvning asosiy bo'g'ini bo'lib, ularda tartib, buyruq va itoat birinchi o'rinda turardi. Bo'taboy bunday muhitga na ko'nib, na ko'nikib ketdi. Shunga qaramay, ikki yilcha ishladi hamki, bu davr mobaynida chor ma'murlari uni uch marotaba jazolab ulgurdi. Jazo sabablari uyezd boshlig'i topshiriqlarini to'liq bajarmagani, ayrim hollarda rahbarlar oldida o'zini ular kutgandek tutmagani, bo'yinsunmagani uchun oldiniga 5 so'm jarima to'lashga majbur

BO‘RONDAN KUCHLI

bo'ladi. Yana bir safar yetti kun, so'ng ikki hafta qamoq jazosini o'taydi va oxiri ishdan bo'shatiladi.

Aslida, bu holat-manzara Bo'taboy Dadaboyev tabiatida qaror topgan qat'iyat, jur'atni ham yaqqol ochib beradi. U tepadan tushgan har ko'rsatma, topshiriqni ko'r-ko'rona bajarib ketadiganlar xilidan emasdi. Hayotning o'ngircho'nqirini erta tanigan bu yigit “har gapga bosh egib” ketmasligi tabiiy edi. Bu xulq yo g'ayrat o'sha paytda tobora kuchayib borayotgan jadidlik harakati namoyandalari qarashlariga-da mohiyatan uyg'un, hamohang edi.

Toshkentdagi xizmat yillarida ruscha savodi ochildan, keyin Chodakda bo'lis devonxonasida ish yuritib, rasmiy yozishma va jamoat ishlari bilan shug'ullangan Bo'taboy Chust shahar xo'jalik boshqarmasida ish boshlaydi. U yerda uni mahalliy masalalarni yoritish, aholining murojaatlari va shahar boshqaruvi faoliyatiga oid ma'lumotlarni to'plashga jalb qilishadi. Shu tariqa u matbuotga xos vazifalarga kirishib, amalda jurnalistik faoliyatini boshlaydi. 1914-yil yanvaridan Fevral inqilobigacha Bo'taboy Chust shahar xo'jalik boshqarmasida jurnalist, so'ngra daha pristavi B.Yaxin tomonidan dastlab Marg'ilonga daha pristavi qilib o'tkaziladi, keyinroq uning tavsiyasi bilan Skobelev shahri pristavi qoshidagi xatlar bo'limida ishlaydi.

1916-yili Farg'onada yuz bergan qo'zg'olon kunlarida Bo'taboy yana bir sinovga duch keladi. Rasmiy xizmat paytida viloyat amaldorlaridan biri o'tib ketayotganida ta'zim qilmagani ortidan tanbeh eshitadi. Qahramonimiz tanbehga keskin javob qaytaradi. Bu harakat ortidan “qahramonlik” izlamog'chi emasmi. Ammo bor gap ham shu: Bo'taboy Dadaboyev o'zini kamsitishlariga aslo yo'l qo'ymagan. Ma'mur tanbeh berganda bosh egib turgamani va keskin javob qaytarishi esa unga nisbatan tergov ishlari yurib ketishiga olib keladi.

O'sha yil kuzagida Bo'taboy Dadaboyev bilan yana bir qiziq holat sodir bo'ladi. Farg'onadagi “Военное собрание” binosida spektaklga kirmog'chi bo'lganida, unga “sartligi uchun” patta sotishmaydi. Bu holat o'sha davrda mahalliy aholining huquq va sha'ni qay darajada e'tiborsiz ekanini yaqqol ko'rsatadi. Bo'taboy Dadaboyev e'tiroz bildirgan ortidan “noqonuniy harakat” aybi bilan hibsga olinadi. Ko'rib turganingizdek, oddiy tadbirga kirishni talab qilishning o'zi ham jinoyat sifatida baholangan. Fevral inqilobi tufayligina u qamoq jazosidan qutulib qoladi.

Fevral inqilobidan keyin u pristavlik huzuridagi jurnalistik faoliyatini to'xtatadi. Marg'ilonda musulmon ishchilari va hunarmandlari kengashini tashkil etish hamda “Himmat” iste'molchilar jamiyatini tuzish ishlarida faol qatnashadi. Jamiyatning nazorat komissiyasi a'zosi qilib saylanadi. Bir fursat militsiya sohasida xizmat qiladi.

Hokimiyat tepasiga kelgan bolsheviklar Bo'taboyning savodli, serg'ayrat, tashkilotchi yigit ekanini ko'rib, undan foydalanishga qaror qiladi. U dastlab 1917-yilning kuzida Farg'ona viloyati Yer ishlari qo'mitasiga a'zo, keyin uning boshlig'i qilib saylanadi. Ammo bolsheviklar Turkistonning

milliy respublika sifatida ravnaq topishidan manfaatdor emas ediki, o'lka parchalanib, kichik respublika va muxtoriyatlarga bo'lib yuboriladi. “Suvning qayoqqa oqayotgani”ni sezgan millatparvar ziyolilar bolsheviklar hukmronlik qilsa, Vatan va millat ozod bo'la olmasligini payqaydi. Shu sababli, turli tashkilotlar tuzib, Turkistonni sovet davlati changalidan ajratib olishga urinadi.

Ana shunday tashkilotlardan biri “Ittihad va taraqqiy” edi. Tergov hujjatlarida qayd etilishicha, bu tashkilotga Turor Risqulov, Munavvar qori Abdurashidxonov, Sa'dulla Tursunxo'jayev, Nizomidin Xo'jayev, Yusuf Aliyev, Ali Rasulov kabi insonlar rahbarlik qilishgan. Unga O'zbekiston KP(b) Markaziy Komiteti kotibi Akmal Ikromov, Xalq Komissarlari Kengashi Raisi Fayzulla Xo'jayev, Yer va suv ishlari xalq komissari Rustam Islomov va boshqa yirik rahbarlar xayrixohlik ko'rsatishgan. Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Komiteti raisi Inomjon Xidiraliyev mazkur tashkilotga Bo'taboy Dadaboyevni ham jalb etgan.

Tashkilotning bosh maqsadi

ko'plab vazifalar yuklanar edi. Shu sababli, Bo'taboy Dadaboyev bir qator qo'shimcha lavozimlarda ishlaydi.

Tergov hujjatlarida keltirilishicha, Bo'taboy Dadaboyev navbatdagi yillarda Tojikistonda xizmat faoliyatini davom ettirib, u yerdagi “Ittihodi Sharq” tashkiloti bilan aloqada bo'lgan. Tashkilot a'zolari orasida Tojikiston SSR MIQ sobiq rahbari Nusratullo Maxsum, Tojikiston Xalq Komissarlari Kengashi sobiq raisi Abdurahim Hojiboyev, ijtimoiy ta'minot xalq komissari Muhitdinov, Tojikistonning Moskvadagi muxtor vakili Abdujabborov va boshqalar bo'lgan.

Bo'taboy Dadaboyev Turkiston Respublikasi Yustitsiya xalq komissarligi lavozimida ishlagan o'ninchi rahbar hisoblanadi. U o'z tarjimaiy holida shunday yozadi: “1923-yil 14-aprelda Turkiston Respublikasining Yustitsiya xalq komissari va may oyidan boshlab Respublika Bosh prokurori vazifalarini bajarishga kirishdim. O'sha paytda bu ikki lavozimni bir kishi boshqarar edi. Mazkur sohaga 1924-yil 8-yanvarga qadar rahbarlik

ko'magi bilan Turkmanistonga ishga yuboriladi. 1935–1937-yillarda Turkmaniston SSR Yer ishlari xalq komissarligida mas'ul lavozimlarda ishlaydi. 1937-yilning 31-avgustida u Ashxobod shahrida qo'lga olingan. O'n besh kun davomida “qiynoq ustalari” uning irodasini sindirish uchun turli azoblarga giriftor qilgan.

1937-yil 5-sentyabrda O'zbekiston SSR ICHK Xalq komissari Nikolay Zagvozdin qarori bilan Dadaboyev “savdogarning o'g'li”, “jadidlarning aksilinqilobiy “Ittihad va taraqqiy”, “Milliy ittihad” tashkiloti a'zosi” sifatida ayblanib, hibsga olinadi. Uning Toshkentdagi uyida tintuv o'tkazilib, shaxsiy hujjatlari, ordenlari, xavfsizlik qog'ozlari va 500 dan ortiq kitobi musodara qilinadi.

1938-yil 4–16-oktyabr kunlari Moskvadan Toshkentga SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasi a'zolari kelib, sayyor sessiya o'tkazadi. Bu jarayonga tayyorgarlik sifatida 1938-yil 22-mart sanasi qo'yilgan maxsus ro'yxat tuzilgan bo'lib, unda O'zbekistondan otuvga mahkum etilishi rejalashtirilgan 155 kishi (birinchi toifa) va



Turkiston hududida yagona milliy davlatni barpo etish edi. Bo'taboy Dadaboyevga oid tergov materiallarida uning bu borada “bosmachilik harakati”ni har qanday yo'l bilan qo'llab-quvvatlashga, hatto ularga qurol-yarog' yetkazib berishga uringan”i qayd etiladi.

1918-yilda Skobelev soveti deputatligiga bo'lib o'tgan saylovlarda ko'pchilik qatori Dadaboyev ham deputatlikka saylanadi. Deputatlarning birinchi yig'ilishida Ijroiya qo'mita raisining birinchi o'rinbosari qilib tayinlanadi. Bu lavozimda 1919-yil fevraligacha ishlaydi. Shundan so'ng, Farg'ona viloyat soveti deputatlarining xabarnomasi bo'lgan “Axbor” nomli musulmonlar gazetasiga muharrirlik qiladi.

...1921-yilning boshida uning tashabbusi bilan Farg'ona viloyatining markazi qilib Skobelev shahri o'rniga Qo'qon shahri belgilanadi. U markazning Qo'qonga ko'chirilishi bilan bog'liq ishlarga bosh bo'ladi. Keyin, Farg'ona viloyat revolyutsion komitetining topshirig'iga ko'ra, Namanganga uyezd-shahar revolyutsion komitetining raisi vazifasiga xizmatga jo'natiladi. Bu yerda Ijroiya komitet, oziq-ovqat kengashi, bahorgi ekin ekishga tayyorgarlik ko'rish, soliq-larni yig'ish kampaniyalarining raislari vazifalarida ham ishlaydi.

1922-yilning bahoridan boshlab Farg'ona viloyat revolyutsion komiteti raisligiga tayinlanadi. O'sha paytlari Sovet hukumat organlarida rus tilini biladigan xodimlar nihoyatda kam bo'lgani bois, har bir odam zimmasiga

qildim. Shuningdek, 1923-yil avgust-sentyabr oylarida Turkiston Respublikasi Markaziy Ijroiya Qo'mitasi raisi vazifasini vaqtincha bajardim. 1922–1924-yillarda Markaziy Ijroiya Qo'mitasi a'zosi bo'ldim. 1924-yil fevraldan Respublika yer ishlari bo'yicha xalq komissari birinchi o'rinbosari va ushbu komissariat qoshidagi qishloq xo'jaligi boshqarmasi rahbari sifatida faoliyat yuritdim. 1924-yil oxiridan e'tiboran Tojikiston Respublikasini tashkil etish va u yerda rahbarlik tizimini shakllantirish ishlarida ishtirok etdim”.

Bo'taboy Dadaboyev Yustitsiya va prokuratura tizimiga rahbarlik qilgan sakkiz oy davomida qator tashkiliy ishlarga qo'l urdi. Xususan, 1923-yil 13–18-sentyabr kunlari Turkiston Respublikasi prokuratura xodimlarining birinchi qurultoyi o'tkazildi. Bu yig'ilishda Dadaboyev kadrlar yetishmasligi, mavjud xodimlarning kasbiy malakasi pastligi, prokuratura faoliyatiga ijro organlarining assosiz aralashuvi va joylarda tizim yetarli darajada ishlamayotgani haqida tanqidiy fikrlar bildirdi.

1924–1934-yillarda u Tojikiston ASSRda xizmat qilib, Tashkiliy byuro raisi, “Qo'shchi” uyushmasi raisi, Markaziy Ijroiya Qo'mita raisi o'rinbosari lavozimlarida ishlagan. Bu davrda Abdurahim Hojiboyev bilan hamkorlik qilgan va Markazning tojik xalqi manfaatlariga zid siyosatiga qarshi chiqqan. 1931-yilda paxta yetishtirishni yo'lga qo'yish maqsadida Farg'ona vodiysidan ko'plab aholi Tojikistonga ko'chirilgan ekan, bundan norozilik kuchayib, ko'pchilik qamoqqa olinadi. Shu jarayonda Dadaboyev vazifasidan ozod etilib, 1932–1934-yillarda Toshkentda Tojikistonning doimiy vakili bo'lib ishlaydi. O'sha yillarda “qurilishlar mahalliy xalq manfaatlariga mos bo'lishi kerak”, degan talabi uchun partiya safidan chiqariladi.

1935-yilda u Fayzulla Xo'jayevdan yordam so'raydi va uning

yana 10 kishi (ikkinchi toifa) nomi ko'rsatilgan. Hujjatga Stalin, Molotov, Kaganovich, Voroshilov, Jdanov imzo chekkan. Hozirda mazkur ro'yxat Rossiya Federatsiyasi Prezidenti arxivida saqlanadigan shunga o'xshash 383 ta ro'yxatdan biri. Unda ismi-familiyalargina yozilgan va ro'yxatdagi 30-raqamda Bo'taboy Dadaboyev ham qayd etilgan.

Qatag'on tegirmonining ishlash usulidan, sovet “gestapochi”larining qamoqxona eshigidan kirgizib olgach, mahbuslarga qilgan yovuzligi va shafqatsizligidan boxabar tarixchilar 1937-1938-yillarga oid soxta so'roq va iqrornomalar qanday qiynoqlar evaziga qo'lga kiritilganini yaxshi biladi. Zero, jazo tashkilotlari o'z maqsadlariga erishish, vahshiyliliklarini yashirish, qabih ishlarini niqoblash maqsadida o'zlari to'qib chiqargan uydirma, iqrornomalarga soatlab oyog'idan osib kaltaklangan, uxlamagan, chalajon va qariyb behush mahbuslarga imzo chektirish “san'at”ini puxta egallabgina qolmay, ularni safdoshlari-yu avlodlari oldida ham badnom etish “yo'l”larini yaxshi bilganlar.

Shunday sharoitda Bo'taboy Dadaboyev ham “aybini tan olgan”. SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasi 1938-yil 5-oktyabrda yig'ilishida Bo'taboy Dadaboyevni otuvga hukm qiladi, hukm o'sha kuniyoq ijro etiladi.

Vatani, xalqining hur va ozod kunlarga erishishini orzu qilib, bu yo'lda mardona kurashganlarga ko'mak bergan, ularni qo'llab-quvvatlagan chustlik arbob, jadidlik harakatining peshqadam kurashchilaridan biri Bo'taboy Dadaboyev kabi ma'rifatparvarlar taqdiri hali ochilmagan qo'riq. Ularning bizga beradigan saboqlari bisyor...

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor

XOTIRA AZIZ



QATAG‘ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Salimxon Tillaxonov – 1898-yil Toshkentda tug'ilgan. O'zbekistonda “Milliy istiqlol” harakati namoyandalaridan biri, “Milliy ittihad” tashkiloti Sirdaryo viloyati rahbari bo'lgan. 1914–1916-yillarda boshlang'ich maktablarda o'qituvchi, “Turon” truppasida aktyor bo'lgan. 1916-1917-yillarda Boku Pedagogika institutida o'qigan. Toshkent eski shahar maorif bo'limi mudiri. Salimxon Tillaxonov O'rta Osiyo institutida ham o'qigan va o'qituvchilik qilgan (1924-1925). Toshkent okrug moliya kursini tashkil etib, unga rahbarlik qilgan (1925–1929). “Moliya fani asoslari” asarini yozgan. 1929-yil noyabr oyida Davlat siyosiy boshqarmasi (GPU) tomonidan qamoqqa olingan. 1931-yil 23-iyunda Moskva shahrida otib tashlangan. 1989-yil 24-martda oqlangan.

Humoyiddin Yo'ldoshqoriyev – 1896-yili Andijon shahrida tug'ilgan. Sobiq yirik savdogar. Fuqarolar urushidan keyin Turkiyaga kelgan. “Nashri Maorif” tashkilotining a'zosi bo'lgan. Qamoqqa olinishi paytida artelda mudir bo'lib ishlagan. Aholi orasida doimiy ravishda aksilinqilobiy xarakteridagi targ'ibot olib borganlikda, xalq dushmanlariga nisbatan hamdardlik bildirganlikda ayblanib, O'zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi qo'llanilib, 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 4-oktyabrdan hisoblangan.

Isroil Alixo'jayev – 1896-yili Farg'ona shahrida tug'ilgan. 1918-yili aksilinqilobiy faoliyati uchun 6 yil qamoqqa hukm etilgan. 1934-yili partiya dan o'chirilgan. Qamoqqa olinish vaqtida kolxozda ferma mudiri bo'lib ishlagan. U 1918-yili Qo'qondagi qo'zg'olonning faol ishtirokchisi bo'lgan, qizilarmiyachilarning otilishida ishtirok etgan, millatchi aksilinqilobiy targ'ibot olib borgan. “Milliy ittihad” aksilinqilobiy millatchi tashkilotning a'zosi sifatida uning yashirin yig'ilishlarida ishtirok etganligi sababli O'zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi va 67-moddasi bilan ayblanib, 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 23-avgustdan hisoblangan.

Hakimxo'ja Abbosxo'jayev – 1889-yili Namangan shahrida tug'ilgan. “Milliy ittihad” aksilinqilobiy tashkilotning faol a'zosi bo'lgan. Hibsga olingunga qadar rayon matlubot jamiyati huzuridagi sut zavodida instruktor bo'lib ishlagan. Avvaldan sovet hokimiyatiga qarshi dushmanlik kayfiyatda bo'lib aholi orasida aksilinqilobiy targ'ibot olib borganlikda, Oliy Sovetga saylovlar to'g'risida tuhmat tarqatganlikda, “Yashirin ovoz berish – o'zbeklarga qarshi kurashdir”, deb aytganlikda ayblangan. U 3318-sonli ish bo'yicha otuvga hukm qilingan.

Ahmadjon Nosirboyev – 1884-yili Jizzax shahrida tug'ilgan. Sobiq savdogar. “Milliy ittihad” tashkiloti a'zosi bo'lgan. 1932-yili aksilinqilobiy faoliyati uchun qamoqqa olingan va yetti oy hibsga bo'lgan. Hibsga olingan vaqtda aniq mashg'uloti bo'lmagan. Aholi orasida xalq dushmanlarini maqtaganlikda ayblanib, otuvga hukm etilgan.

Kubri Hamroyevich Abduqayumov – 1886-yili Samarqand shahrida tug'ilgan. “Milliy ittihad” tashkilotining a'zosi bo'lgan. 1931-yili aksilinqilobiy faoliyati uchun 3 yil surgunga hukm etilgan. Hibsga olingan vaqtda O'zbekiston kooperatsiya xomashyosida tayyorlovchi bo'lib ishlagan. Doimiy ravishda qarshi targ'ibot olib borganlikda, kapitalistik tuzumni maqtaganlikda ayblangan. 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilib, jazo muddati 1937-yil 19-avgustdan hisoblangan.

Islombek Arslonbekov – 1901-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. 1918-yili ko'ngilli harbiy xizmatda bo'lgan. O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti birinchi kotibi Akmal Ikromov 1937-yil 21-sentyabrda qamoqqa olinganidagi tergovda aksilinqilobiy tashkilotda Islombek Arslonbekov ham bo'lgani qayd etilgan. 1937-yil 8-oktyabrda qamoqqa olinib, Toshkent turmasiga keltirilgan. Unga O'zbekistonda aksilinqilobiy faoliyat ko'rsatgan degan ayb qo'yilgan. SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining 1938-yil 8-oktyabrda sayyor yig'ilishida Islombek Arslonbekov otuvga hukm etilgan, hukm o'sha kunning o'zidayoq amalga oshirilgan.

Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori

Nigoraxon AKBAROVA,
muzey ilmiy xodimasi
(Davomi kelgusi sonda).



“
**Kishan kiyma,
Bo'yin egma –
Ki, sen ham hur tug'ulg'onsen!**
CHO'L PON
”



TARMOQLARDA NIMA GAP?

KITOB
YO'QOLMAYDI

Ertalab odatdagidek ishga ketayotib metroga tushdim. Poyezdning q'uvillagan tovushi-yu, jonsarak yo'lovchilar kishida qandaydir betoqlik uyg'otadi. Bu safar birdan kayfiyatim xush bo'ldi: "Paxtakor"dan "Alisher Navoiy" bekati o'tish yo'lagida kitob javoni atrofida uymalashayotgan odamlarni ko'rib qoldim. Kimdir shu yerda ham ma'rifat ulashib, kitob savdosini yo'lga qo'ydimikin deb o'ylasam, "Turon kitob bekati" ochilibdi.

Tavba qildim-u, keyingi paytda hamma narsadan nuqson qidiradigan bo'lganman men ham. Qaysidir tadbirkor "o'tmagan" kitoblardan rasta yasab "ochko" olmoqchi bo'lgandir-da degan badxayol bilan bir qur ko'z tashlasam, o'qilishi shart bo'lgan durdona asarlar saf tortib turibdi: "Boburnoma"ga bir quvonsam, "Xamsa" bilan "O'tkan kunlar"ni ko'rib, ikki yayradim. Kayfiyat a'lo bo'ldi. Chunki odamlar o'qimay qo'ydi degan iddao trendda bo'lgan zamonda metrodek beqaror, tig'iz makonda kitob ishqibozlari shunchalik ko'p ekaniki...

Qiziqib, o'tgan-ketgandan so'rasam, bu yangicha kitobxonlik tashabbusining sharti shu ekaniki: istalgan bekatdan kitob olib, manzilga yetganda boshqa javonda qoldirib ketishi kerak. Ya'ni, mutolaa faqat metro ichida bo'lishi ko'zda tutilgan. Endi siz ham metroga tushganda behuda videolar tomosha qilish o'rniqa o'qib, unumli va foydali vaqt o'tkazishingiz mumkin. Siz menga jahllanib, "Nima, telefonda faqat zararli tomoshalar yig'ilganmi? "Mutolaa" ilovasidagi kitoblar-chi? Minglab audio spektaklar-u, jiddiy filmlar-chi?" dersiz. To'g'ri, lekin qo'lida kitob tutgan odam tirik atirgul ko'targan baxtiyor oshiqqa o'xshaydi. Xullas, bunday tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash kerak. Qanday qilib deysizmi? Metroga tushganda bu beminnat xizmatdan foydalaning. Afsus chekmaysiz.

Ildirgi: Eshitishimcha, birinchi kuniyoq mingga yaqin kitob yo'qolibdi. Ishonchim komil, bu g'oyib bo'lgan asarlar tez orada boshqacha shaklda jamiyatimizga qaytib keladi.

Otabek RAHIM
Facebook

O'FA DIQQATIGA

NIMA UCHUN
"LAMBADA"?

Futbolga ashaddiy ishqiboz emasman, lekin O'zbekiston milliy terma jamoalari, qaysi yosh tarkibida bo'lsa ham, maydonga tushar bo'lsa, qoldirmasdan, jiddiy e'tibor bilan kuzataman. Ayni kunlarda Qatarda 17 yoshgacha o'smirlar o'rtasida o'tayotgan jahon chempionatini ham qiziqish bilan ko'rib boryapman.

Albatta, bugun milliy futbolimiz rivoji uchun davlatimiz tomonidan barcha sharoitlar yaratib berilmoqda. Buning samarasi o'laroq, futbolchilarimiz – o'smirlarmi, yoshlar yoki kattalar bo'ladimi – jahon maydonlarida o'z salohiyatini namoyish etayotgani, milliy terma jamoamiz tarixda ilk bor jahon chempionati yo'llanmasini qo'lga kiritgani, iqtidorli sportchilarimiz dunyoning nomdor klublari safidan o'rin olayotgani quvonarli. Lekin hozir gap futbolchilar haqida emas, terma jamoalarimiz va milliy klublarimizda shakllangan muxlislar jamoasi, ya'ni "fan-klub"lar xususida.

Aslida, bizning bu ashaddiy ishqibozlar guruhiga hech e'tirozimiz yo'q. Ular o'zidan, ishidan, oilasidan ortib, futbolchilarimizni har doim qo'llab-quvvatlab keladi, barakalla! Shuning ortidan elga tanilgan zamonadoshlarimiz bor. Muxlislar orasida xotin-qizlar ko'payib borayotganini ham ko'ryapmiz. Hammasi yaxshi. Faqat, bir narsa borki, beixtiyor, "O'tkan



kunlar"dagi Yusufbek hojining mashhur so'zlari yodingizga keladi: "Nega har bir narsaga yetkan aqling shunga qolg'anda oqsaydir".

Ma'lumki, "fan-klub" a'zolari o'yin vaqtida kamay-surnay-u nog'oralarda turli kuylarni chalib turadi. Cholg'u milliy, lekin e'tibor qilsangiz, kuy begona. Siz ham "repertuar"ga qiziqib ko'ring: aksari tinglovchilar orasida ommalashgan bo'lsa-da, lekin musiqasi o'g'irlangan qo'shiqlar. Bu ohanglarning qardosh xalqlar yoki jahon estradasidan o'g'irlanganini ko'pchilik, xususan, uni ijro etayotgan "fan-klub" a'zolari bilmas, lekin egalari – o'sha millat vakillari ehsitsa, taniydi-ku.

Bular ham mayli, mashhur "Lambada" qo'shig'ining kuyi kim yoki nima uchun chalin-yapti? O'zbekiston o'yinida "Lambada"ning chalinishi, ehtimol, braziliyalik san'at ixlosmandlarini mamnun etar, lekin boshqa davlatlar ahlini hayron qoldirmaydimi? Dunyoda O'zbekiston va uning qayerda joylashgani haqida

yetarli tasavvurga ega bo'lmagan odamlar ham ko'p, ular ham jahon chempionatlarini ko'radi, bu kuy ularni chalg'itmaydimi?

O'zbekiston futbol assotsiatsiyasiga taklif: bilimdon san'atkor va san'atshunoslar, musiqa mutaxassislaridan yoki mas'ul idora – Madaniyat vazirligidan tavsiya olinib, "fan-klub" cholg'uchilariga asl milliy musiqalarimiz saralab berilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Yoki "Lazgi", "Andijon polkasi" kabi mashhur kuylarimizdan foydalanigan ma'quldir.

Darvoqe, yaqinda "Andijon" klubi muxlislarining "Andijonliklar keldi" degan hayyirig'i ommalashgan, bu tajribadan "Temuriylar keldi" tarzida katta maydonlarda ham foydalanilgan edi. Balki, ko'pchilikka yoqqan shu ohang asosida barcha terma jamoalarimiz uchun maxsus qo'shiq yozish mumkindir, shoir va bastakorlardan ko'mak so'ralsa, ular albatta yo'q demaydi. E'tiborsiz bo'lmaylik!


Ikrom BO'RIBOYEV

HAJV

Xudoga shukr, zap qulay zamonlarga ro'para bo'p qoldikmi, Sattor Surob! Ilgari – turg'unlik davrlarida paxta terimdan qochish uchun medpunkt navbatchisidan spravka olishga kechgacha ovora bo'lardik, esingdami? O'sha Turg'un medbrat dumini tutqazmasdan goh tuman markaziga, goh viloyat markaziy shifoxonasiga spravka olishga ketgan bo'lardi. E, nimasini aytasan, mana, dorilomon kunlar kep qoldi. Spravka, dalolatnoma, ishonchnoma, shahodatnoma, sug'urtanoma, shikoyatnoma, tasdiqnoma, guvoohnoma, garovnoma kabi ma'lumotnomalarni olish cho't bo'may qoldi. Xohlasang, xotinni yubor, bo'lmasa kenjatoying g'irillab borib keltirib turibdi-yu.

Xullas kalom, o'tgan kuni kaminaga notariusdan tasdiqnoma zaril bo'pqoldi. Xitoyga ketayotgan o'g'ilchaga nomimdan kafolatnoma kerak ekan: "chjen-pjen, Chayn-mayn, kenjatoyim Marmarqo'zi devor oshib, o'ynab kelishiga qarshimasman. Enasi unga ilova, Chayn-mayn", degan mazmunda. Bir tanishnuxsa notarius bor edi Miltiqxo'ja degan. Shuni raqamini topib, urdim. "Iye, okaxon, qullu bo'lsin! Shest sekundda yest qilamiz. Yo'-yo', kelishingiz shartamas, telefonda hal qilamiz. Xollasangiz, hoziroq". Toleyimdan o'rgilay, qara-ya, ovoragarchilik, sarsongarchilik yo'q. Telefonda muloqot, videoyozuv, klikdan to'lov, bo'ldi, tamom, olam guliston. "Okey, – dedi Miltiqxo'ja. – Ertaga sakkiz-u o'n beshda tayyor bo'ladi. Opketaverasiz. Kstati, navbatchiga ataganingizni qistirib ketarsiz".

Ertaman xotinboyni yetaklab akang qarag'ay Sharqshunoslik oliygohining etagidagi yerto'laga joylashgan notarius tepasiga yetib bordik. Qopqoq taqa-taq berk. Mayli, asosiysi, dimog' chog', kayfiyat vajang, bu yoqda boshimizdan za'far yaproqlar to'kilib, har o'n odimda xazon



uyumi tutab, atrofga romantik fayz bag'ishlab turibdi. Shu fayziyob manzaraga mahliyo bo'lib, soat o'n birga yaqinlashganini ham sezmay qopmiz. Birdan xotinning jazavasi tutdi: "O'n yarimda elchixonada bo'lishim kerak edi, aytuvdim-a, qo'lingizdan hech balo kelmaydi, nima ishga aralashsangiz pachava deb!" Sattor, o'zingga tan, shahrimizda nima ko'p, apteka bilan notarius. Bundoq qarasam, binoning so'l tomonida yana bir notarius qo'r to'kib turibdi. Shart kirdim-u, to'lovini qilib, hujjatni opchiqdim. Bor-yo'g'i, uch soatcha vaqtim bilan yarim milyoncha soqqacham ketdi. "Mana, – dedim xotinni tushug'iga tirab. – Senga nechta dakimant kerak?" Bechara toza mulzam bo'lib, tavbalar keltirdi. Sattor, nega yirib qo'ygan makkaday tirjaysan? Ha, haligi Miltiqxo'ja o'n yetti marta sim qoqqdim. Zim-ziyo. Mayli, biror kun uchrab qolsa, kerakli joyiga ataganimni qistirib, hujjatimni olarman. Odam ehtiyotini qilib, zapas variant bilan yashagani tuzuk. Har shaklda

bir ishkal deganlariday, elchixonaga kechikib borganimiz sabab, ona-bolaning safari keyingi yilga qoldi. Xayr, bundayam bir hikmat bordir.

Endi, Sattor Surob, ortiqcha shilqimlik aralash "U labzi yo'q aldoqchi muttahaq qay manzilda ekanini bilib qo'yaylik" deb o'zingni jinilikka solma. Bu fikri ojizing ila shoiri oxirzamon Kaliyning "Mehring qalbinga investitsiyadur" degan muhtasham dostonidan bebaxarliging oshikor bo'lib qolmasmu.

Bayt:

Qon yalagan qassobda

**sabzi bo'lmis, yaxshilar,
Jon talagan kazzobning
lafzi bo'lmis, yaxshilar.
(Qaralsin: "Tanlangan asarlar"
17-jild, 748-bet.**

"Topsabosar" nashriyoti. 4-qayta nashr)

Hojatbarorlarni qidirib ham o'tirma. Hujjat-pujjat zaril bo'pqosa, senga o'zlari chiqishadi.

Mulla XUNOB

TILBILIM

Hozirgi o'zbek tilidagi olxo'ri, olcha, shaftoli kabi meva nomlari "olu" so'zi ishtirokida yasalgan. Qadimgi turkiyda "olu" ma'nosida "šro'k" ("o'rik") so'zi ishlatilgan. "Devonu lug'atit turk"da "šro'k" so'ziga: "shaftoli, o'rik, olxo'ri kabi mevalarning umumiy nomi" deb izoh berilgan Ammo keyinchalik, afsuski, "šro'k" ko'p holatlarda o'z o'rnini "olu"ga bo'shatib berdi.

"Boburnoma"da "olu" mustaqil holatda hozirgi tilimizdagi "olxo'ri" ma'nosida qo'llangan. "Forscha-o'zbekcha lug'at"da ham "olu" – "olxo'ri" deb izohlangan. Endi mazkur "prunus", ya'ni "olu" yoki "šro'k" oilasiga mansub mevalarga e'tibor qaratamiz:

OLUCHA – hozirgi tilimizda "olcha". Bu nom forscha "olu"ga turkcha "-cha" kichraytirish qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan.

OLVOLI – "O'zbek tilining izohli lug'ati"da bu so'z ham shevada



"olcha" ma'nosini bildirishi aytiladi. "Boburnoma"da bu so'z – "olu-bolu" shaklida yozilgan: "Men olu-bolu niholini kelturub ekturubmen, yaxshi olu-bolur bo'ldi va hanuz taraqqiyda edi". Bobur mazkur jumladan olu-bolu, ya'ni olchani Kobulga keltirib ektirganini aytmoqda. Qayerdan keltirgan? Albatta, Movarounnahr, hozirgi O'zbekiston hududidan keltirganligi ehtimoli ko'proq. Balki shuning uchun bu meva nomi oxiriga turkcha "-cha" qo'shimchasi qo'shilib, "olucha" deb atalgandir.

QAROLI – bu so'z "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga ham, "O'zbek tilining etimologik lug'ati"ga ham kirmay qolgan. "O'zbek xalq shevalari lug'ati"dan bu so'zning Qashqadaryo, Jizzax, Xorazm hududlarida qo'llanishini bilib olish

OLU

mumkin. "Qaroli" deganda ham olxo'ri tushuniladi va u turkiy – "qora" hamda "olu" so'zlari qo'shilishidan "qora olu" shaklida yasalgan. Bunday duragay ism paydo bo'lishi sababi – aslida olxo'ringing qadimgi turkcha nomi "qara šro'k" bo'lgan. Yuqorida biz forscha "olu" – qadimda turkchada "šro'k" bo'lganligini aytdik. Keyinchalik "šro'k" o'rnini "olu" egallagach, "qara šro'k" ham "qara olu" – "qaroli"ga aylangan.

"Boburnoma"da hozirgi Afg'oniston hududida o'sadigan emluk daraxti ham tilga olinib, uning mevasini turklar "qora yemish" deyishlari ham aytiladi: "Qo'rg'onning ikki tarafidagi rud (anhor, daryo) yoqalari tamom daraxttur, ko'pragi emluk yig'ochidir. Bu mevani ba'zi turklar qora yemish derlar".



ZARDOLI – bu ism fors-tojikcha "sariq" ma'nosidagi "zard" va "olu" so'zlaridan yasalgan, ya'ni "sariq olu", "Devonu lug'atit turk"dan esa bu mevaning qadimgi turkcha nomi ham – "sariq šro'k" ekanligini ko'rish mumkin. Hozirgi o'zbek tilida qadimgi turkiydagi "šro'k" faqat shu meva nomida "o'rik" shaklida saqlanib qolgan. "Zardoli" ko'proq Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo hududlarida "o'rik" ma'nosida qo'llaniladi.

GURDOLI – bu nom birorta o'zbekcha lug'atda uchramadi. Ehtimol, "gurdolu" – fors-tojikcha "pahlavon, botir" ma'nosidagi "gurd" va "olu" so'zlaridan yasalgan bo'lishi mumkin. Chunki tojikcha lug'atlarda: "gurdolu – nav'i olui kalondona", ya'ni "katta dona

olu navi" deb izohlangan. Shuningdek, o'zbek va tojik shevalarida "olxo'ri" ma'nosida: "g'aynoli", "g'ayloni", "g'aydolu" kabi nomlar ham mavjud.

SHAFTOLI – bu so'z etimologiyasi haqida "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da keltirilgan izoh qoniqarli emas. Mutaxassislar talqiniga ko'ra, bu so'z o'rta fors tilidagi "sut" ma'nosidagi "shift" ("šift") va "olu" so'zlaridan yasalgan va "sutli olu" ma'nosiga ega. Qadimgi turk tilida esa bu mevani – "to'lo'g šro'k" deb atashgan.

"Devonu lug'atit turk"da yana bir meva nomi – "limkan" ham keltirilgan bo'lib, unga "sariq olxo'ri" deb izoh berilgan. "Boburnoma"da Bobur limonni – "limu" deb ataydi. "Devon"da ham "limkan", ya'ni "sariq olxo'ri" deganda, ehtimol, limon ko'zda tutilgandir. Yoki qadimgi turkiyda hozirgi tilimizdagi o'rik ikki nom bilan: ham "limkan", ham "sariq šro'k" deb atalgan bo'lishi mumkin.

Abduvohid HAYIT

Jadid

Muassislar:



O'ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASI



RESPUBLIKA MA'NAVİYAT
VA MA'RIFAT MARKAZI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI



MILLIY MASS-MEDIANI
QO'LLAB-QUVVATLASH
VA RIVOJLANTIRISH
JAMOAT FONDI



"SHAHIDLAR XOTIRASI"
JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Mas'ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Akmal Jumamurodov

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat fikri bilan
mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar
muallifga qaytarilmaydi va ular
yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 195115 raqam
bilan ro'yxatga olingan.

Adadi – 18 761

Shundan:

Kirill yozuvida – 7 119

Lotin yozuvida – 11 642

Media kuzatuvchilar – 74 370

Buyurtma: G – 1140.

Hajmi: 4 bosma taboq, A2.

Nashr ko'rsatkichi – 222.

Tashkilotlar uchun – 223.

1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:

Toshkent shahri,

Shayxontohur tumani,

Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20

Devonxona: (97) 745-03-69

jadidgt@mail.ru (71) 203-24-17

Jadid_gazetasi@exat.uz

"Sharq" nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:

Toshkent shahri,

Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:30

Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz